

«TEXNOLOGIK TA'LIM»  
KAFEDRASI

**S.KH. ABDULLAYEV**

**TEXNOLOGIYA FANINI O'QITISHDA ILG'OR  
PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR**  
fanidan

Amaliy Mashg'ulotlarini bajarish bo'yicha

**O'QUV-USLUBIY QO'LLANMA**



Namangan-2023

## MUNDARIJA

<b>KIRISH</b> .....	<b>6</b>
<b>1-MASHG'ULOT.</b> Pedagogik texnologiyalar, tushunchalar, asosiy sifatleri, ilmiy asoslari, tasnifi .....	<b>26</b>
<b>2-MASHG'ULOT.</b> An'anaviy o'qitish .....	<b>28</b>
<b>3-MASHG'ULOT.</b> Guruhlarda hamkorlikda ishlashni tashkillashtirish texnologiyasi. Hamkorlikda o'zaro o'qish .....	<b>31</b>
<b>4-MASHG'ULOT.</b> Ta'lim vositalari – ta'lim texnologiyasining tarkibiy qismi: ta'limning texnik vositalari; yordamchi ta'lim vositalari; o'quv uslubiy materiallar .....	<b>33</b>
<b>5-MASHG'ULOT.</b> Grafik organayzerlar .....	<b>34</b>
<b>6-MASHG'ULOT.</b> Muammoli o'qitish texnologiyasi .....	<b>36</b>
<b>7-MASHG'ULOT.</b> O'yinli texnologiyalar .....	<b>37</b>
<b>8-MASHG'ULOT.</b> O'qitishning interaktiv strategiyasi .....	<b>39</b>
<b>9-MASHG'ULOT.</b> Mualliflik texnologiyalari .....	<b>41</b>
<b>10-MASHG'ULOT.</b> O'qitishni intensivlash texnologiyalari .....	<b>43</b>
<b>11-MASHG'ULOT.</b> O'qitishning kompleks metodlari .....	<b>45</b>
<b>12-MASHG'ULOT.</b> Pedagogik mahorat, pedagogik texnologiya va pedagogik mahoratning nazariy asoslari .....	<b>47</b>
<b>13-MASHG'ULOT.</b> Pedagog shaxsi ta'lim amaliyotida va pedagogik fikr tarixida pedagogning mahorati masalalari .....	<b>49</b>
<b>14-MASHG'ULOT.</b> Pedagogik qobiliyat. Pedagogning kommunikativ qobiliyati .....	<b>51</b>
<b>15-MASHG'ULOT.</b> Muloqot madaniyati va ta'lim oluvchining psixologik faoliyati .....	<b>54</b>
<b>16-MASHG'ULOT.</b> Pedagogik texnika va uni shakllantirish usullari.....	<b>57</b>
<b>17-MASHG'ULOT.</b> O'quv va tarbiya jarayonida pedagog mahorati va pedagog mehnatini tashkil etishning ilmiy asoslari .....	<b>59</b>
<b>IZOHLI LUG'AT – GLOSSARIY</b> .....	<b>62</b>
<b>XULOSA</b> .....	<b>69</b>
<b>ADABIYOTLAR RO'YHATI</b> .....	<b>70</b>
<b>QO'SHIMCHA MA'LUMOTLAR UCHUN</b> .....	<b>72</b>

## KIRISH

O'zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti I.A.Karimov ta'biri bilan aytganda, - "Bugun biz tez sur'atlar bilan o'zgarib boraytgan, insoniyat hozirga qadar boshidan kechirgan davrlardan tubdan farq qiladigan o'ta shiddatli va murakkab bir zamonda yashamoqdamiz. Davlat va siyosat arboblari, faylasuflar va jamiyatshunos olimlar, sharhlovchi va jurnalistlar bu davrni turlicha ta'riflab, har xil nomlar bilan atamoqda. Kimdir uni axborot texnologiyalar zamoni desa, kimdir tafakkur asri, yana boshqalar esa yalpi axborotlashuv davri sifatida izohlamoqda.

Bugungi kunda zamonaviy axborot maydonidagi harakatlar shu qadar tig'iz, shu qadar tezkorki, endi ilgaridek, ha, bu voqea bizdan juda olisda yuz beribdi, uning bizga aloqasi yo'q, deb beparvo qarab bo'lmaydi. Ana shunday kayfiyatga berilgan xalq yoki millat taraqqiyotdan yuz yillar orqada qolib ketishi hech gap emas".

O'qituvchi tamonidan talabaga materillarni o'rganishda, maruza matnlari, kurs ishi, referat va diplom ishlarini yozishda o'rganiladigan adabiyotlarni tanlashda yordam beriladi, o'zlashtirgan bilimlarini nazorat qilish, ishni amalga oshirishini, intizomni nazorat qilish va baholash bo'yicha ko'nikmalar olish.

Har bir amaliy topshiriqlarni quyidagi bosqichlar orqali amalga oshiriladi:

- Mashg'ulotning mavzusi.
- Mashg'ulotning maqsadi.
- Mavzu bo'yicha nazariy ma'lumotlar.
- Topshiriqning mazmuni.
- Topshiriqni bajarish algoritmi.
- Topshiriqni bajarish dasturi.
- Topshiriq natijasi.

Talabalar amaliy topshiriqlarni bajarish bilan birga, topshiriqlarni bajarilishi bo'yicha hisobot yozib borishlari va bu hisobotlarni nazorat o'tkazish davrigacha topshirishlari lozim.

Bizni qiziqtiradigan oliy ta'limga taalluqli muammolar tadqiqodchilari ham (K.I.Arjang va boshqalar) "amaliy topshiriq" atamasidan turli ma'noda foydalanishgan. Shunday qilib, "amaliy topshiriq" quyidagicha talqin etiladi: bilimlarni egallash uchun zarur ma'lumotlarni mustaqil izlash, ushbu bilimlardan o'quv, ilmiy va kasbiy masalalarni yechishda foydalanish ( S.I. Arxangelskiy); ma'ruza vaqtida, Mashg'ulotlarga, JN, ON va YaNlarga tayyorgarlik ko'rganda, kurs va birituv malakaviy ishlarni (BMI) bajarishda o'quv materialiga ijodiy yondoshish va tushunturish (A.G. Molibog); talabalarning o'quv jarayonida yoki auditoriyalardan tashqarida o'qituvchining bevosita rahbarligisiz, ammo uning nazorati ostida yakkaxon yoki guruh bo'lib amalga oshiradigan faoliyati (R.A. Nizamov). Shuningdek, bir qator mualliflar mustaqil ishni o'qituvchisiz o'tadigan o'quv jarayonini boshqaruvchi pedagogik sharoitlarini tashkillashtirish tizimi deb tushunadilar.

T.A. Ilinning "Pedagogika" darsligida o'qituvchilarning individual guruhiy va frontal o'quv faoliyatining alohida bir turi sifatida ta'riflandi. Bu faoliyat o'qituvchining rahbarligi ostida, ammo uning bevosita ishtirokisiz amalga oshiriladi, o'rganish jarayonining yuqori faolligi bilan tavsiflanadigan ham Mashg'ulotlarda, ham auditoriyadan tashqarida bajarilishi mumkin bo'lgan, hamda ta'lim jarayoni va talabalarni o'z bilimlarini mustaqil to'ldirishga tayyorlash samaradorligini oshiruvchi vosita bo'lib xizmat qiladi. Bu masalaga pedagogika, psixologiya va ta'lim berish bo'yicha adabiyotlarda alohida e'tibor beriladi; amaliy tajribalar umumlashtiriladi, talabalar vaqt byudjeti o'rganiladi, turli ixtisoslik va fanlarga muvofiq ravishda aqliy mehnat madaniyati va tashkillashtirishni oqilona usullari o'rganiladi. OO'Yu da ta'lim berish jarayonida auditoriyada va auditoriyadan tashqarida mustaqil ishni tashkil qilish, o'quv mehnatini bajara olishni shakllantirish OO'Yu dan keyingi ta'lim va malaka oshirishga asos bo'lib xizmat qiladi.

Talaba ta'limning passiv ob'ekti emas, balki o'quv jarayonining aktiv shaxsi bo'lishi kerak. Demak, uni faol o'quv jaryoniga jalb etish, "o'qishga o'rgatish", bilimlarni egallashda unga yordam berish lozim; ta'lim

bitiruvchining butun ongli hayotini egallashi kerak, ya'ni ta'lim butun umrga emas, balki butun umr bo'yicha.



Zamonaviy oliy maktabni rivojlanish davrida uning vazifasiga mos sharoitlarda quyidagi muammolarni hal etish zarur:

*Birinchidan*, o'qituvchi va talabning an'anaviy ma'ruza, seminar, amaliy va boshqa Mashg'ulotlarga tayyorlash uchun vaqt, energiya va mehnat sarflarini kamaytirish muhim.

*Ikkinchidan*, umuman boshqa sifatga ega ta'limni ta'minlash kerak.

*Uchinchidan*, xalqaro ta'lim muhitiga moslashish zarur.

Dunyo miqiyosida raqobatbardosh bo'lgan, o'zi uchun, hamda jamiyat uchun eng yuqori samara bilan nostandart ishlab chiqarish, ilmiy o'quv masalalarni tezkorlik bilan yecha oladigan ertangi kun mutaxassislarini tayyorlash haqida gap bormoqda. XXI asr insoni o'zini boshqara olishi, erkin bo'lishi, ma'naviy va estetik jihatdan rivojlangan, aqlli va odobli, kuchli iroda, keng yurak, rivojlangan ichki hissiyot va mustahkam sog'liqqa ega bo'lishi kerak.



---

<sup>1</sup> I.A.Karimov. Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi: 2010 yilda mamalakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011 yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'nalishlarga bag'ishlangan O'zR Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. – T.: O'zbekiston, 2011.

*Fanning o'qitishdan maqsad:*

Ushbu fanni o'qitishdan maqsad - talabalarda pedagogik texnologiyalar, multimedia xujjatlarni yangi shakllarini ishlab chiqish, pedagogik texnologiyalar hamda multimediali texnologiyalarni ta'lim va boshqa soxalarda qo'llash, multimedia texnologiyalarini ishonchlilik, havfsizlik va unumlilik ko'rsatkichlarini oshirishni takomillashtirish bo'yicha yo'nalish profiliga mos bilim, ko'nikma va malaka shakllantirishdan iborat.

*Fanining vazifasi:*

Talabalarga pedagogik texnologiyalar va tizimlariniig asosiy tushunchalari, ovoqli texnologiyalarni ta'minlab beruvchi kompyuter vositalari, muloqot axborotlarini kiritish va chiqarish tizimlarini o'rgatishdan iborat.

## ***1-MASHG'ULOT***

**Mavzu: Pedagogik texnologiyalar, tushunchalar, asosiy sifatlari, ilmiy asoslari, tasnifi.**

**Izoh:** Shunday ekan, bu o'rinda «pedagogik texnologiya» tushunchasining kullanilishi, shuningdek, asosiy e'tiborni fakat ta'lim jarayonini samarali tashkil etishgagina karatmay, balki xam ta'lim, xam tarbiya jaraeningsamaradorligini ta'minlashga birdek qaratish lozimdir.

«Ta'lim texnologiyasi» tushunchasi «ta'lim metodikasi» tushunchasiga nisbatan kengdir. Ta'lim metodi – o'quv jarayonining majmuaviy vazifalarini echishga yo'naltirilgan o'qituvchi va o'quvchilarning birgalikdagi faoliyati usuli bo'lsa, ta'lim metodikasi esa muayyan o'quv predmetini o'qitishning ilmiy asoslangan metod, qoida va usullar tizimini ifodalaydi.

**Mashg'ulot maqsadi:** Pedagogik faoliyatda pedagogik yo'nalish hosil qilish va bir-biriga ta'sir ko'rsatadigan qobiliyatlarning alohida bir tarkibini vujudga keltirish.

### ***Mashg'lumotni o'qitish natijasida quyidagilarga erishildi:***

- tarbiyaviy jarayon ijodkorlikdan iboratdir, lekin u pedagogik vaziyatni tahlil qilish mahoratida ham, bolalar bilan bevosita o'zaro hamkorlik qilishda ham namoyon bo'ladi;

- tarbiyachi pirovard natijada pedagogik ta'sir ko'rsatish dramaturgiyasini ishlab chiqadi, uni rivojlantirish sohalarni belgilaydi, tarbiyaviy ta'sirlar rejasini tuzib chiqadi, bu reja u yoki bu tarbiyaviy syujetni rejissiorona ko'rishni nazarda tutadi;

- pedagogik faolyat aniq maqsadga qaratilganligi va ayni vaqtda polionizm (ko'p ovozlgi), vaziyat va tarbiyalanuvchi shaxsining o'xshashligi bilan farq qilishi, jo'shqin, samarali, o'zgarishlar kirishga layoqatli bo'lishi, shaxslararo munosabatlar sistemasiga muvofiq bo'ladi.

### **Umumiy ma'lumotlar:**

O'qituvchi faoliyatining tuzulishi bo'lajak pedagogning tashkilotchilik-boshqaruv ko'nikmalari va malakalariga ma'lum talablar qo'yadi, shu

munosabat bilan uni aktyorlik va rejissyorlik mahorati tarkibiy qismliriga o'rgatib borish zarurati ortadi.

Pedagogning o'quvchilarga yuzi bilan qarab turishi yoki burilib turishi ham o'ziga xos semantikaga ega. Auditoriyaga idrokning psixofiziologiya qonunlari bo'yicha to'g'ri chiziq bo'ylab chiqib ketish (ro'para turish) o'quvchilarni sergaklantiradi, chunki kompozitsiya jihatdan o'quvchining qiyofasini, unga qat'iylik, ma'nodorlik baxsh etadi. Gavdaning qanday tutishiga (oyoqlarning erkin turishi, gavdaning og'irligi tufayli oyoqlardan biriga ko'proq yuk tushishi, murakkab tag ma'nolarni uzatuvchi boshning turlicha holatda bo'lishi mumkinligi), "diagonallarning samaradorligi" - sinfning ish maydonidagi eng uzun masofaga (u darhol ikki o'lchovda kompozitsion o'zgarishni ta'minlaydi) muvofiq trur ekan "ko'p darajada erkinlikka" ega bo'ladi.

Xotirani mashq qildirish aktyorlik psixotexnikasining mashq qildirishning mashhur qoidalari va usullari asosida amalga oshiriladi. Ma'lumki, diqqat-psixik faoliyatni shunday tashkil etishdan iboratki, unda muayyan idroklar, tasavvurlar, fikr yoki his-tuyg'ular ikkinchi planga o'tib ketgan yoki butunlay anglab bo'lmaydigan boshqa idroklar, tasavvurlar, fikrlar yoki his-tuyg'ularga qaraganda aniqroq idrok etiladi.

Tarbiyachi ijodkorligining o'ziga xosligi shundan iboratki, u ijodiy fikrini o'z shaxsi orqali amalga oshiriladi. Boshqacha qilib aytganda, pedagogikada ijodkorning shaxsi bilan ijodkorlik quroli (vositasi) bir-biriga mos keladi bunda tarbiyachining o'z-o'zini namoyon qilishi juda katta rol o'ynaydi. Bu jihatdan o'qituvchi ning faoliyati bir qator xususiyatlari bo'yicha aktyor, rejissyorning badiiy-ijodiy faoliyatiga yaqindir.

Shuni qayd etib o'tish kerakki, teatr ijodkorligida va pedagogik ta'sir ko'rsatishda, ya'ni pedagog bilan bolalarning bevosita o'zaro harakati bilan bog'liq bo'lgan hissi o'zaro fikr almashish sohasida ko'pgina umumiy tomonlar bor. Tarbiyachi pirovard natijada pedagogik ta'sir ko'rsatish dramaturgiyasini ishlab chiqadi, uni rivojlantirish sohalarni belgilaydi, tarbiyaviy ta'sirlar rejasini



tuzib chiqadi, bu reja u yoki bu tarbiyaviy syujetni rejissiorona ko'rishni nazarda tutadi, nihoyat, pedagogning o'zi tarbiyaviy g'oyalar va yo'l-yo'riqlarning faol "uzatuvchisi" bo'lib maydonga chiqadi.

### ***Savol va topshiriqlar:***

- 1. Pedagogik texnologiyalar tushunchasi va uning mezonlari.*
- 2. Pedagogik texnologiyalar darajalari.*
- 3. Ta'lim texnologiyalarida pedagogik texnologiyalarni o'rni.*

## **2-MASHG'ULOT.**

### **Mavzu: An'anaviy o'qitish.**

***Izoh:*** Aniqlashtirilgan maqsadli texnologiyalar, dasturlashtirilgan ta'lim. O'quv maqsadlarini belgilash. O'quv maqsadlarini nazorat qilish. An'anaviy o'quv jarayoni bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish, ularning o'zlashtirish darajasini nazorat qilish va boshqalar tushiniladi.

***Mashg'ulot maqsadi:*** Tarbiyaviy jarayon ijodkorlikdan iboratdir, lekin u pedagogik vaziyatni tahlil qilish mahoratida ham, bolalar bilan bevosita o'zaro hamkorlik qilishda ham namoyon bo'ladi. Tarbiyachi ijodkorligining o'ziga xosligi shundan iboratki, u ijodiy fikrini o'z shaxsi orqali amalga oshiriladi. Boshqacha qilib aytganda, pedagogikada ijodkorning shaxsi bilan ijodkorlik quroli (vositasi) bir-biriga mos keladi bunda tarbiyachining o'z-o'zini namoyon qilishi juda katta rol o'ynaydi.

### ***Mashg'lumotni o'qitish natijasida quyidagilarga erishildi:***

- Pedagogik faoliyatda pedagogik yo'nalish hosil qiladigan va bir-biriga ta'sir ko'rsatadigan qobiliyatlarning alohida bir tarkibi vujudga keladi;
- ko'pgina faoliyat turlaridan farqi o'laroq, aktyorlik va pedagogik ijodkorlik asosida buning uchun ajratilgan muayyan vaqt davomidagi ijodkorlik etadi, u ijodkordan (o'qituvchi, tarbiyachidan) o'z ruhiy holatini boshqarishda tezkorlikni va ijodiy kayfiyatni ayni dakiqada qo'zg'atishni talab qiladi;
- teatr va pedagogik ijodkorlik natijalari jo'shqin bo'lib, rivojlanib, o'zgarib boradi, boshqacha qilib aytganda, hamisha jarayondan iborat bo'ladi;

- teatr va pedagogik ijodkorlik jamoa tushida bo'ladi. Tarbiyaviy jarayon pirovard natijada ikkita yirik bosqichdan: tarbiyaviy maqsad va uni amalga oshirish jarayonidan tashkil topadi.

### **Umumiy ma'lumotlar:**

Tarbiyaviy jarayon faoliyatdir, mana shuning uchun ham buni rejalashtirishda kishining o'zaro hamkorligi qonunlari hisobga olinishi lozim. Faoliyatga o'quvchilarni qo'shish yo'lini tutish kerak. Shunday qilib tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishni rejalashtirish bosqichidayoq, pedagogik dramaturgiya amalga oshirilishi mumkin. U pedagogik harakatning o'ziga dialektiklik, jiddiylik bag'ishlashga yordam beradi. Pedagog dars va har qanday tadbir sistemasida tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishni rejalashtirar ekan, uni aniq odamlarga yo'naltiradi. Demak, umuman jamoaga, xususan har bir jamoaga nisbatan bo'lajak pedagogik faolyat uchun zarur tarbiyaviy-syujetli vaziyat yaratadi. Ma'lum ma'noda dars-bu o'ziga xos pedagogik p'esa bo'lib, unda o'qituvchi stsenariy muallifi sifatida, munosabatlar dramaturgiyasini barpo etadigan va uni boshqaradigan kishi sifatida namoyon bo'ladi. Tarbiyaviy jarayon har bir katnashchisining faolyatdagi o'rnini belgilab beradi, aniq ilmiy-pedagogik maqsad asosida vujudga kelgan p'esa qiyin kechishi lozim bo'lgan yangidan-yangi pedagogik vaziyatlarni vujudga keltirib turadi.

Shunday qilib pedagogik faolyat-bu tarbiyachining pedagogik jihatdan tan olingan, rejalashtirilgan yoki tayyorgarlik ko'rilgan hatti-harakati bo'lib, u vaziyatni yoki bola shaxsini o'zgartirishga olib keladi. Pedagogik faolyat aniq maqsadga qaratilganligi va ayni vaqtda polionizm (ko'p ovozliligi), vaziyat va tarbiyalanuvchi shaxsining o'xshashligi bilan farq qilishi, jo'shqin, samarali, o'zgarishlar kirishga layoqatli bo'lishi, shaxslararo munosabatlar sistemasiga muvofiq kelishi kerak.

O'qituvchi faoliyatining tuzulishi bo'lajak pedagogning tashkilotchilik-boshqaruv ko'nikmalari va malakalariga ma'lum talablar qo'yadi, shu munosabat bilan uni aktyorlik va rejissyorlik mahorati tarkibiy qismliriga o'rgatib borish zarurati ortadi. Harakat, diqqat, organika, mushaklar erkinligi,

xayol, muomala, qilish, to'ppa-to'g'ri harakat bo'lar buyuk teatr pedagogi K.S.Stanislavskiy sistemasining asosiy tushunchalari bo'lib ularni bo'lajak o'qituvchi ham o'zlashtirib olishi foydalidir.

Talabalar oldiga qo'yiladigan asosiy vazifa-jismoniy harakatlar orqali, "muskul quvonchi" orqali ichki ma'naviy shodlik holatini topishdan iborat bo'lib, u yuksak ishchanlik kobilyatiga, to'la kuch bilan ishlash istagini paydo bo'lishiga yordam beradi. Bundan tashqari, juda yuksak maqsad "o'ta vazifa" o'zni xudi tajribali pedagog sifatida tutish vazifasi qo'yiladi. Bu tasavvur hulq-atvordagi jismoniy mashq orqali o'zini baxtiyor va mehnatsevar his qilishda yordam beradi. Shunday qilib jismoniy harakatlarining tashqi tomoni orqali psixologik tomonni mashq qildirish sodir bo'ladi, u sensomotor ko'nikmalar, xayol, hissiy reaksiyalarni chuqurlashtirishga qaratilgandir. Jismoniy harakatlar usuli ayrim o'zaro fikr almashish ko'nikmalarini mashq qildirish uchun ham qo'llaniladi. Bahamjihat bo'lib ishlash-o'zaro bog'langan jamoa faoliyat-guruh a'zolarini jiplashtirishga, ularning birinchi navbatda psixofiziologik jihatdan muvofiq kelishiga yordam beradi.

Pedagogning sinfda turish holati o'zining alomatlariga ega. Masalan, chap kisim eng oddiy mizasaxnasining tili "oldin bo'lishlik"ni bildiradi, bunda ko'z qarashi go'yo harakatni o'ng qismdagi bo'sh makonga "haydaydi", chunki ko'z shartli-reflektorli fiziologik mexanizmlar tufayli fazona chapdan o'ng tomonga qarab "o'qiydi". Undagi kompozistiya tugallikka intiladi, chunki chap qismdagi fazo o'ng tomonda joylashgan kompozistiyani siqib qo'yganday bo'ladi va bu bilan uni ahamiyatliroq, salobatliroq qiladi.

### ***Savol va topshiriqlar:***

- 1. Yaxlit pedagogik jarayon tizimidagi ta'lim texnologiyalari.*
- 2. Jamiyatda odamlar nega va qanday bilim oladilar?*
- 3. O'quv jarayoniga ta'lim texnologiyalarini joriy etishning dolzarbligi.*

### **3-MASHG'ULOT**

**Mavzu: Guruhlarda hamkorlikda ishlashni tashkillashtirish texnologiyasi.**

#### **Hamkorlikda o'zaro o'qish.**

**Izoh:** Guruhli o'qitish texnologiyasining shakli. Sinfda guruhli faoliyatning asoslari. Guruhli o'qitish shaklida o'qituvchining vazifasi. Hamkorlikda o'zaro o'qish. Hamkorlikda o'zaro o'qish turlarini va tashkillashtirish texnologiyalari o'rganiladi.

**Mashg'ulot maqsadi:** Guruxlarda ishlash – bu o'quv topshirig'ini hamkorlikda bajarish uchun tashkil etilgan, o'quv jarayonida kichik guruxlarda ishlashda (2 tadan – 8 tagacha ishtirokchi) faol rol o'ynaydigan ishtirokchilarga qaratilgan ta'limni tashkil etish shaklidir. Bunda asosiysi topshiriq – natija emas balki, gurux ichidagi hamkorlik jarayonidir.

#### ***Mashg'lumotni o'qitish natijasida quyidagilarga erishildi:***

- Har kim faol, birgalikda ishlashi, berilgan topshiriqqa mas'uliyatli yondashadi;

- Guruhlarda hamkorlikdagi faoliyatni taqdim etish shaklini ma'lum qiladi. Har biri va butun guruhning natijalarini baholash mezonlarini tushuntiradi.;

- Ta'lim oluvchilar bilan guruhli ishni bajarish bo'yicha yo'riqnomani muhokama qiladi, hammalari uni tushunganlariga ishonch hosil qiladi;

- Kichik guruhlarga birlashtirish yo'lini tanlaydi.

- Ta'lim oluvchilarni kim guruhlarga bo'lishini aniqlaydi, agarda bajarish uchun turli topshiriqlar berilsa, ular guruhni o'z qiziqishlari bo'yicha tanlashlari mumkin.

#### **Umumiy ma'lumotlar:**

Bugungi boshqaruv amaliyotida nafaqat ijtimoiy ustuvor yo'nalishlar aniqlanmoqda, balki ijtimoiy texnologiyalar ham ishlab chiqilmoqda (axborot, tashkiliy, ma'muriy, me'yoriy-huquqiy). Boshqaruvning ijtimoiy sohasi ham ta'sir ob'ekti, ham sub'ekti nuqtai nazaridan mustaqil, ko'p tuzilmaviy va ommaviy bo'lib bormoqda. Bu sohada alohida boshqaruvchi - menejer

mutaxassisligi paydo bo'lmoqda. Shuning uchun bunday sharoitlarda ilmiy bilim sohalari ichida ijtimoiy menejment tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. U ijtimoiy jarayonlarga samarali ta'sir etishga, boshqarishning o'sishi, mutaxassislarni kelajakda nazariy va amaliy bilimlarini kafolatlashga inson uchun qulay ijtimoiy sohaning shakllanishiga ta'sir etishga, ijtimoiy tashkilotlarni loyihalashtirishga imkon beruvchi nazariy va amaliy bilimlarni shakllantirish sohasi bo'lib, ushbu fanda qo'yilgan mavzularning dolzarbligini belgilaydi.

Guruh ishlarida o'zaro faol ishtirok etish, berilgan topshiriqlarga javobgarlik bilan yondashish. Agar yordam kerak bo'lsa, albatta murojaat qilish kerak. Agar sizdan yordam so'rashsa, albatta yordam bering. Guruhlar faoliyatining natijalarini baholashda hamma ishtirok etishi shart.

- Шахс ва жамият ўртасидаги қарама-қаршилик дунёнинг мувозанатдан чиққинининг асосий сабаби ҳисобланади. У бутунги кундаги ижтимоий портлашлар ва ҳалокатлар ўсишига имконият яратиб бермоқда. Бу дунё олдида турган долзарб муаммолардан бири бўлиб унинг ечимига ижтимоий ривожланиш суръатлари ва маънавий тамойинлар кўп жиҳатдан боғлиқ.

### Шахс ва жамият ўртасидаги қарама-қаршилик



#### ***Savol va topshiriqlar:***

- 1. Ta'limni tashkillashtirish shakllari: mohiyati va mazmuni.*
- 2. Guruhlarda hamkorlikda ishlashni tashkil etish texnologiyasi.*
- 3. Hamkorlikda o'zaro o'qish.*

#### **4-MASHG'ULOT**

**Mavzu: Ta'lim vositalari – ta'lim texnologiyasining tarkibiy qismi:  
ta'limning texnik vositalari; yordamchi ta'lim vositalari;  
o'quv uslubiy materiallar.**

**Izoh:** Ta'lim vositalari moddiy va ideal o'qitish vositalari. Texnik vositalar. Ta'limning texnik vositalari. Laboratoriya uskunasi. Didaktik materiallar. Ko'rgazmali vositalar. O'quv kompyuter dasturlari. Talabalar bilimlarini nazorat qilish va o'qitish natijalarini baholashda zamonaviy vositalardan foydalanish.

**Mashg'ulot maqsadi:** Ta'lim vositalari - o'quv materialini ko'rgazmali taqdim etish va shu bilan birga o'qitish samaradorligini oshiruvchi yordamchi materiallar hisoblanadi.

***Mashg'lumotni o'qitish natijasida quyidagilarga erishildi:***


- Ta'lim berishning texnik vositalari namoyon bo'ladi;
- o'quv - uslubiy materiallar ko'rishni nazarda tutadi;
- yordamchi ta'lim vositalari namoyon bo'ladi.

#### **Umumiy ma'lumotlar:**

Talabalarni o'quv - bilish faoliyatlarini jadallashtirishga yordam beruvchi har turdagi ta'lim vositalarini tanlash va ulardan foydalanish quyidagilarga bog'liq:

- 1) maqsadni belgilash;
- 2) asosiy bilim manbaiga;
- 3) ta'lim usuliga;
- 4) o'quv materialining yangiligi va murakkabligiga;
- 5) talabalarni o'quv imkoniyatlariga.

## Ta'lim vositalarining tasnifi



### Savol va topshiriqlar:

1. Ta'lim vositalari tushunchasi va mazmuni.
2. Ta'lim texnologiyasining tarkibiy qismi.
3. Grafikli organayzerlar texnikasi.

## 5-MASHG'ULOT

### Mavzu: Grafik organayzerlar.

**Mashg'ulot maqsadi:** Grafikli organayzerlar (tashkil tuvchi) – fikriy jarayonlarni ko'rgazmali taqdim etish vositasi. Ma'lumotlarni tarkiblashtirish va tarkibiy bulib chiqish, urganilayotgan tushunchalar (vokea va xodisalar, mavzular) urtasidagi aloka va uzaro bogliklikni urnatish usul va vositalari: Klaster, Toifalash jadvali, Insert, B/B/B jadvallarini o'rganishdan iborat.

### **Mashg'lumotni o'qitish natijasida quyidagilarga erishildi:**

- Maqsadlarni belgilash;
- o'quv axborot mazmuni anglash;
- ta'lim vositalari;
- etakchi bilim manbai;
- o'quv materialining yangiligi va murakkabligi bilish.

### **Umumiy ma'lumotlar:**

Ko'pgina hollarda muammoni echishda "nima qilish kerak"ligi to'g'risida o'ylanib qolmasligingiz kerak. Asosan muammo, uni echishda "buni qanday qilish kerak?", "qanday" asosiy savollar yuzaga kelishidan iborat bo'ladi. "Qanday" savollarining izchil berilishi quyidagilar imkonini beradi: muammoni echish nafaqat bor imkoniyatlarni, balki ularni amalga oshirish yo'llarini ham tadqiq qilish; quyidan yuqoriga bosqichma-bosqich bo'ysunadigan g'oyalarni tuzilmasini aniqlaydilar.

Diagramma strategik darajadagi savollar bilan ishlashni boshlaydi. Muammoni echishning pastki darajasi birinchi galdagi harakatlarning ro'yxatiga mos keladi. Barcha g'oyalarni o'ylab o'tirmasdan, baholamasdan va taqqoslamasdan tezlikda yozish kerak; Diagramma hech qachon tugallangan bo'lmaydi: unga yangi g'oyalarni kiritish mumkin; Agarda chizmada savol uning "shoxlarida" bir necha bor qaytarilsa, unda u biror muhimlikni anglatadi. U muammoni echishning asosiysi bo'lishi mumkin; Yangi g'oyalarni grafik ko'rinishda: daraxt yoki kaskad ko'rinishidami, yuqoridan pastgami yoki chapdan o'ngda qayd qilinishini o'zingiz hal etasiz; Agarda siz o'zingizga to'g'ri savollar bersangiz va uning rivojlanish yo'nalishini namoyon bo'lishida ishonchni saqlasangiz, diagramma, siz har qanday muammoni amaliy jihatdan echimini topishingizni kafolatlaydi.

«Pog'ona»ni tuzish jarayonida tizimli sxemaning tarkibiy qismi va elementlarini siljitish mumkin – bu u yoki bu holatni qayta fikrlash imkonini beradi. Agarda siz g'oyalarni ishlab chiqishda tor yo'lakka kirib qolsangiz, u holda bir-ikki daraja yuqoriga qayting va muhim narsani unutmaganingizga hamda boshqacha nimadir qilish mumkin ekanligini ko'rib chiqing. Siz chapdan o'ngga yozishga o'rgangansiz. «Kaskad» qurishni o'ngdan chapga qarab tuzishga harakat qiling. Buning uchun asosiy g'oyani chap tarafda emas, balki o'ng tarafda joylashtiring.

### ***Savol va topshiriqlar:***

*1. Ta'limni tashkillashtirish shakllari: mohiyati va mazmuni.*



2. Guruhlarda hamkorlikda ishlashni tashkil etish texnologiyasi.

3. Hamkorlikda o'zaro o'qish.

## **6-MASHG'ULOT**

### **Mavzu: Muammoli o'qitish texnologiyasi.**

**Izoh:** Bugungi kunda nafaqat ta'lim tizimida balki o'qitishning barcha sohalarida muammoli o'qitish texnologiyalari keng qo'llanilib kelinmoqda, bu esa talim sifatining ortishiga va iqtisodiy samaradorlikka olib kelmoqda. Muammoli o'qitish nazariy asoslari. Muammoli o'qitishning maqsadi, mohiyati. Muammoli vaziyat. Muammoli o'qitishning umumiy funksiyalari. Muammoli o'qitish metodlarning tizimi. Muammoli darsning tuzilishi va muammoli ta'lim jarayonlari keng qo'llanilib kelinmoqda.

**Mashg'ulot maqsadi:** Talim berishning eng samarali usullaridan bo'lib, u asosan ilmiy bilimlar asosida muammoli vaziyatlar mantiqini shakllantirishdan iborat.

### **Mashg'lumotni o'qitish natijasida quyidagilarga erishildi:**

- Tarbiyaviy jarayon ijodkorlikdan iboratdir, lekin u pedagogik vaziyatni tahlil qilish mahoratida ham, bolalar bilan bevosita o'zaro hamkorlik qilishda ham namoyon bo'ladi;

- talim oluvchilar oldingi bilim va ko'nikmalariga asoslanib, muammoli vaziyatni hal qilish yo'llarini qidiradilar va takliflar kiritadilar.;

- pedagogik faolyat aniq maqsadga qaratilganligi va ayni vaqtda polionizm (ko'p ovozlighi), vaziyat va tarbiyalanuvchi shaxsining o'xshashligi bilan farq qilishi, jo'shqin, samarali, o'zgarishlar kirishga layoqatli bo'lishi, shaxslararo munosabatlar sistemasiga muvofiq bo'ladi.

### **Umumiy ma'lumotlar:**

Talim berishning eng samarali usullaridan bo'lib, u asosan ilmiy bilimlar asosida muammoli vaziyatlar mantiqini shakllantiradi. Unda o'qituvchi avvalo muammoli vaziyat yaratadi, savollar qo'yadi, maslalani, tajriba topshiriqlarini taklif qiladi, ularni yechishga qaratilgan muxokamani uyushtiradi xulosalarning

to'g'riligini tasdiqlaydi. Talim oluvchilar oldingi bilim va ko'nikmalariga asoslanib, muammoli vaziyatni hal qilish yo'llarini qidiradilar va takliflar kiritadilar. Hodisalar sabablarini aniqlagan holda ularni kelib chiqishini tushuntiradilar, muammoli vaziyatni yechishning eng oqilona variantini tanlaydilar. Bu usul talim oluvchilarning qiziqishiini oshiradi fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi

Pedagogning innovatsion faoliyati - o'z ichiga yangilikni tahlil qilish va unga baho berish, kelgusidagi harakatlarning maqsadi va konsepsiyasini shakllantirish. Ushbu rejani amalga oshirish va tahlil qilish, samaradorlikka baho berishni qamrab oladi. Pedagogik innovatsiyada "yangi" tushunchasi markaziy hisoblanib, pedagogik fanda xususiy, shartli, maxalliy va sub'ektiv yangilikka qiziqish uyg'otadi. Ilmiy yo'nalishlarda yangilik va innovatsiya tushunchalari farqlanadi. Yangilik - bu vosita, yangi metod, metodika, texnologiya va boshq.

Ta'lim texnologiya elementlarini tanlash va amalga oshirishda talabalarning o'quv bilish faoliyatlarini e'tiborga olish lozim. Amaliyotdagi od - diy qoida shu haqda guvohlik beradiki, nazariy darsning dastlabki 20 daqiqasida talabalarga yangi bilimlarni berish amalga oshiriladi, keyin esa bahs-munozara, kichik guruhlarda ishlash va boshqa shu kabi noan'anaviy metodlarni amalga oshirish orqali berilgan bilim mustahkamlanishi lozim. Har qanday holatda ham nazariy dars jarayonida, masalan faqat ma'ruza o'qiladigan vaqt 20 daqiqadan oshmasligi kerak. Chunki o'rganishning dastlabki 20 daqiqasi eng samarali, 30 daqiqadan keyin esa o'rganishni davom ettirish motivatsiyasi tezda pasaya boshlaydi. Bu hamma takliflar talabaning diqqatini uzoqroq vaqtgacha saqlab turishga xizmat qiladi.

### ***Savol va topshiriqlar:***

- 1. Muammoli o'qitish texnologiyalari.*
- 2. O'qituvchining innovatsion faoliyati.*
- 3. Faol o'qitish usullar va ularni o'qitish jarayonida qo'llash .*

## **7-MASHG'ULOT**

### **Mavzu: O'yinli texnologiyalar.**

**Izoh:** Pedagogik o'yinlar. Faoliyat sohasi jihatidan. Faoliyat jarayoni xarakteri jihatidan. O'yin metodikasi jihatidan. Fan sohasi bo'yicha. O'yin muhiti jihatidan. Bugunki kunda o'yin texnologiyalarini tatbiq etishda ularning bir necha turlari amaliyotda uchramoqda.

**Mashg'ulot maqsadi:** O'yin texnologiyalari va ularni o'qish jarayonida qo'llash.

#### ***Mashg'lumotni o'qitish natijasida quyidagilarga erishildi:***

- Maqsadlarni qo'yish;
- rejalashtirish;
- amalga oshirish (maqsadlarni);
- natijani tahlil qilish va boshqalar.

#### **Umumiy ma'lumotlar:**

O'yinli faoliyatning motivatsiyasi eng ixtiyoriyligi, tanlash imkoniyati va musobaqa elementlarining borligi, ehtiyojlarni qondirish, o'zini anglash va o'zini safarbar qilish bilan ta'minlanadi.

#### ***O'yin strukturasiga quyidagi jarayonlar kiradi:***

- O'yinchilar o'zlariga olgan rollar;
- bu rollarni amalga oshirish vositalar sifatidagi o'yinli omillar;
- predmetlarning o'yinli qo'llanilishi, ya'ni, haqiqiy narsalarni o'yinli shartlari bilan almashtirish;
- O'yinchilar orasidagi real munosabatlar;

Kompyuter texnologiyalari o'qituvchini mashaqqatli muammolardan ozod qilish bilan birga, uni axborot berishdan o'quvchilar bilan birga ijodiy munozara qilish, birgalikda tadqiqot qilish, o'qitishning yangi shakllariga, bir so'z bilan aytganda ko'proq ijodiy ishga o'tishga imkon beradi. Produktiv o'qitishning maqsadi mutaxassisni ijtimoiy-tarixiy va bunyodkorlik jarayonining sub'ekti sifatida tayyorlashdir. Mutaxassis uni o'rab turgan muhitga oddiygina singib ketmasdan, balki o'qitish jarayonida olingan turli xildagi ijtimoiy va

ishlab chiqarish muammolarini echish tajribasidan umumli foydalanishi lozim. Produktiv o'qitishning mohiyati o'quv jarayonining mantig'ini o'zgartirishdan iborat. An'anaviy o'qitish jarayoni o'rganuvchi tafakkurining nazariyadan amaliyotga xarakatidan iborat. Produktiv o'qitish esa boshqacharoq mantiq bilan quriladi: amaliyotdan – o'rganishga, o'qishga mo'ljallangan.

#### ***Savol va topshiriqlar:***

- 1. O'yin texnologiyalari va ularni o'qish jarayonida qo'llash.*
- 2. O'yin strukturasi bu?*
- 3. Klaster texnologiyasi bu nima?*

### **8-MASHG'ULOT**

#### **Mavzu: O'qitishning interaktiv strategiyasi.**

***Izoh:*** Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyasi. Rivojlantiruchi o'qitish texnologiyalari. Rivojlanish jarayonining xususiyatlari, qonuniyatlari va pedagogik loyihalashlar.

***Mashg'ulot maqsadi:*** Zamonaviy ta'limdagi innovatsion jarayonlar an'anaviy o'qitishni produktiv o'qitishga aylantirish yo'llarini izlashdan iborat. U ishlab chiqarish va insonlarning hayoti uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan natija, mahsulot olish uchun o'quvchilarning faol ijodiy, tadqiqiy faoliyatini tashkil qilishga asoslangan tarkibini vujudga keltirish.

#### ***Mashg'lumotni o'qitish natijasida quyidagilarga erishildi:***

- Bir-biridan auditoriyada o'rganishga imkoni tug'ildi, boshqalar fikrini qadrlashga o'rgatadi;
- talabalar kichik guruh ishida qatnashishlari uchun tanlangan faoliyat bo'yicha ba'zi bilim, ko'nikma va malakalarni oldindan egallaganligini nazarda tutadi;
- kichik guruhlarda ishlash talabalarning darsda faolligini ta'minlaydi, har biri uchun munozarada qatnashish huquqini beradi.

### **Umumiy ma'lumotlar:**

O'quv jarayonida bir vaqtning o'zida pedagog va kompyuterning ishtiroki ta'lim sifatini ancha oshiradi. Taklif qilingan metodikadan foydalanish dars berish jarayonini faollashtiradi, talabalarning o'qitilayotgan fanga qiziqishlarini orttiradi va o'quv materialini chuqur o'zlashtirishga imkon beradi. Kompyuter va pedagog hamkorligi bir tomondan turli toifadagi talabalarga o'quv materialini yaxshiroq tushunib olishlariga yordam beradi. Boshqa tomondan u o'qituvchi malakasi va tayyorgarlik darajasiga ancha yuqori talablar qo'yadi. Endi u nafaqat an'anaviy o'qitish usullarini egallashi, balki o'rganuvchilarning xususiyatiga qarab, fan va texnika yutuqlaridan foydalanib ularni modernizatsiya qila olishi lozim bo'ladi.

Reproduktiv ko'nikmalardan izlanuvchan (ijodiy) ko'nikmalarni shakllantirishga qanday o'tish mumkin? Ingliz didakti A.Romishovski quyidagi variantni taklif etadi: 1) kerakli bilimlarni etkazish, 2) reproduktiv darajadagi ko'nikmalarni shakllantirish; a) faoliyatni yaxlitligicha va qismlarga bo'lib ko'rsatish (ko'rsatish+tushuntirish), b) ko'nikmalarni soddalashtirilgan sharoitda o'zlashtirish (masala shartini sun'iy soddalashtirish, uni ayrim qismlarga ajratish), v) uzluksiz qaytuvchan aloqa va ijobiy mustahkamlashga asoslangan mustaqil ishni tashkil etish. 3) izlanuvchan yaratuvchanlik fazasiga o'tish: a) turli xil muammoli vaziyatlarni - nostandart misollarni echish, anglatuvchi (imitition) modellash, b) talabalarning o'z faoliyatlarini o'zlari albatta tahlil qilishlari, uni o'qituvchi bilan mulohaza qilish.

Odatda xar bir guruhda 3-5 talaba bo'ladi (ehtimol, kam yoki ko'p bo'lishi mumkin). Agar guruhda ishlash u yoki bu yozma xujjat tayyorlashni talab etsa, yaxshisi 2-3 kishili guruh tuzilgani ma'qul. Guruh o'lchovi masalaning muhimligi, auditoriyadagi talabalar soni, talabalarning bir-biri bilan konstruktiv holatda o'zaro harakatiga bog'liq holda o'zgaradi. Eng yaxshisi, "getrogen" guruh tashkil etishidir (jinsi, o'zlashtirish darajasi va boshqa belgilar asosida). Guruhda ishlash talabalar o'rtasida va -zifalarni aniq taqsimlashga tayanadi (misol uchun, bir talaba munozarani boshqaradi, ikkinchisi yozib

boradi, uchinchi spiker (sardor) rolini o'taydi va hokazo). Auditoriyani guruhlarga ajratish, xoxish bo'yicha yoki hisob bo'yicha amalga oshiriladi.

### ***Savol va topshiriqlar:***

- 1. «Dumaloq stol» usullini qo'llash metodikasi.*
- 2. Aqliy xujum va breynstorm usullarini tashkil etish metodikasi.*
- 3. Case-study (konkret vaziyatlarni tahlil qilish, vaziyatli tahlil) ta'lim jarayonida usulini qo'llash.*

## **9-MASHG'ULOT**

### **Mavzu: Mualliflik texnologiyalari.**

***Izoh:*** Mualliflik texnologiyalari tushunchasi. Mualliflik texnologiyalari turlari. Mualliflik texnologiyalarining xarakterli xususiyatlari. Mualliflik texnologiyalarining ilm va ta'lim rivojlanishidagi hissasi va x.k.

***Mashg'ulot maqsadi:*** Pedagogik faoliyatda pedagogik yo'nalish hosil qilish va bir-biriga ta'sir ko'rsatadigan qobiliyatlarning alohida bir tarkibini vujudga keltirish.

### ***Mashg'lumotni o'qitish natijasida quyidagilarga erishildi:***

- O'quv tarbiyaviy ishning yangi texnologiyasi ishlab chiqiladi va aprobatsiyadan o'tkazildi (sinab ko'rildi);
- kitob bilan ishlash, o'quv suhbatlari, davra suhbatlari, aqliy xujum, kichik guruhlarda ishlash, bahs-munozara kabi metodlarni bilan ishlash;
- talim oluvchilar tomonidan o'quv faoliyati turlari erkin tanlanadi va modul bo'yicha alohida sinov o'tkaziladi..

### **Umumiy ma'lumotlar:**

Bu usul 1918 yilda paydo bo'lgan. Pedagog Ribin pedagogik tajriba o'tkazdi. Talabalar bilan individual va juft-juft bo'lib ishlar edilar: Masala echar edilar, konspekt qilishardi, kitoblardan referat qilishardi, she'rlar yodlashardi, ma'ruzalar eshitishardi, bir-birlari va o'qituvchi oldida hisobot berishardi. Bu davr mobaynida har bir talaba 3-4 yillik o'quv kursini o'zlashtirdi. Bunda talabalarning rivojlanishi hayratli darajada yuqori edi. Rivojlanmagan qishloq

o'smirlari 1 yildan so'ng, mantiqli fikrlaydigan, isbotlay oladigan, munozara qila oladigan, murakkab matnlarni tahlil qila oladigan, hattoki pedagogik qobiliyatini namoyon qila oladigan darajaga etdi.

Hamkorlikda o'rganish - talabalarning bilimni o'zlashtirish, singdirish, mustahkamlash bo'yicha reproduktiv faoliyatini ta'minlovchi, mahorat va malakani ketma-ketlik bo'yicha talabaning bevosita boshchiligida ishga solishni tashkil etishga asoslangan o'qitish va bilim olishdir. U talabalarning mustaqil guruhlarda ishlashi evaziga ta'lim olishini ko'zda tutadigan metodlardan iborat. Bularga kitob bilan ishlash, o'quv suhbat, davra suhbat, aqliy xujum, kichik guruhlarda ishlash, bahs-munozara kabi metodlarni kiritish mumkin. Hamkorlik – deganda o'quv jarayoni qatnashchilarining yagona maqsadga erishish yo'lidagi hamkorlikdagi faoliyati tushuniladi. Bunda quyidagi 3 ta komponenta bo'lishi zarur:

- Maqsadlarning borligini aniq anglab etish.
- Hamkorlik qilayotgan tomonlarning faoliyatini aniq belgilab, chegaralab berish.
- Qo'yilgan maqsadga erishishni ta'minlovchi vazifalarni echishda o'zaro yordam berish.

Hamkorlikda o'rganish - o'quvchilarning bilimni o'zlashtirish, singdirish, mustahkamlash bo'yicha reproduktiv faoliyatini ta'minlovchi, mahorat va malakani ketma-ketlik bo'yicha o'quvchining bevosita boshchiligida ishga solishni tashkil etishga asoslangan o'qitish va bilim olishdir. U o'quvchilarning mustaqil guruhlarda ishlashi evaziga ta'lim olishini ko'zda tutadigan metodlardan iborat. Bularga kitob bilan ishlash, o'quv suhbat, davra suhbat, aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, bahs-munozara kabi metodlarni kiritish mumkin.

### ***Savol va topshiriqlar:***

- 1. Jamoali o'zaro o'qitish texnologiyalari.*
- 2. Hamkorlik texnologiyasi bu?*
- 3. Modulli o'qitish texnologiyasi bu nima?*

## **10-MASHG'ULOT**

### **Mavzu: O'qitishni intensivlash texnologiyalari.**

**Izoh:** Ilg'or ma'ruza. O'qitishning kompleks metodlari. O'qitishning metodlari. O'qitishning a'nanaviy va innovatsion metodlari. Ta'lim texnologiyasida metodlarning roli va o'rni. Faol o'qitish metodlarining mazmuni. O'qitish metodlarini amalga oshirish va metodlarni tanlash mezonlarini o'rganishda keng qo'llaniladi.

**Mashg'ulot maqsadi:** Pedagogik faoliyatda pedagogik yo'nalish hosil qilish va bir-biriga ta'sir ko'rsatadigan qobiliyatlarning alohida bir tarkibini vujudga keltirish.

### ***Mashg'lumotni o'qitish natijasida quyidagilarga erishildi:***

- tarbiyaviy jarayon ijodkorlikdan iboratdir, lekin u pedagogik vaziyatni tahlil qilish mahoratida ham, bolalar bilan bevosita o'zaro hamkorlik qilishda ham namoyon bo'ladi;

- tarbiyachi pirovard natijada pedagogik ta'sir ko'rsatish dramaturgiyasini ishlab chiqadi, uni rivojlantirish sohalarni belgilaydi, tarbiyaviy ta'sirlar rejasini tuzib chiqadi, bu reja u yoki bu tarbiyaviy syujetni rejissiorona ko'rishni nazarda tutadi;

- pedagogik faolyat aniq maqsadga qaratilganligi va ayni vaqtda polionizm (ko'p ovozlgi), vaziyat va tarbiyalanuvchi shaxsining o'xshashligi bilan farq qilishi, jo'shqin, samarali, o'zgarishlar kirishga layoqatli bo'lishi, shaxslararo munosabatlar sistemasiga muvofiq bo'ladi.

### **Umumiy ma'lumotlar:**

«Aqliy xujum» - g'oyalarni generatsiya (ishlab chiqish) qilish metodidir. «Aqliy xujum» metodi biror muammoni echishda talabalar tomonidan bildirilgan erkin fikr va mulohazalarni to'plab, ular orqali ma'lum bir echimga kelinadigan eng samarali metoddir. Aqliy xujum metodining yozma va og'zaki shakllari mavjud. Og'zaki shaklida o'qituvchi tomonidan berilgan savolga talabalar har biri o'z fikrini og'zaki bildiradi. Talabalar o'z javoblarini aniq va qisqa tarzda bayon etadilar. Yozma shaklida esa berilgan savolga talabalar



o'z javoblarini qog'oz kartochkalarga qisqa va barchaga ko'rinarli tarzda yozadilar. Javoblar doskaga (magnitlar yordamida) yoki «pinbord» doskasiga (ignalar yordamida) mahkamlanadi. «Aqliy xujum» metodining yozma shaklida javoblarni ma'lum belgilar bo'yicha guruhlab chiqish imkoniyati mavjuddir. Ushbu metod to'g'ri va ijobiy qo'llanilganda shaxsni erkin, ijodiy va nostandart fikrlashga o'rgatadi.

Guruh o'rindiqlarga doira bo'yicha o'tirib olishadi. O'qituvchi muammoni yoki savol ifoda etadi.

Belgilangan vaqt mobaynida (masalan 10 minut) har bir o'quvchi individual ravishda qo'yilgan muammoni echish yo'llarini yozib oladi.

Aylana bo'yicha har bir o'quvchi o'zining takliflarini bayon qiladi. Guruhning qolgan a'zolari o'ning fikrini izohlamay, tanqid qilmay, jim eshitishadi va har bir band bo'yicha taklifni umumiy qarorga kiritish yoki kiritmaslik haqida ovoz berishdi. Umumiy qarorga kiritilgan takliflar doskaga yozib boriladi.

Pedagogik strategiyasi bo'lib, u ko'p variantli fikrlash, o'rganilayotgan tushuncha (hodisa, voqealar) o'rtasida boglanish o'rnatish malakalarini rivojlantiradi, erkin va ochiqdan-ochiq fikrlashga yordam beradi "Klaster" so'zi guncha, bog'lam manosini beradi. Klaster tuzish ketma-ketligi: 1. Sinf o'quv taxtasi o'rtasiga tayanch so'z yoki ibora yoziladi. 2. Kichik guruhdagi yoki yakka tartibdagi talablarga ushbu so'z yoki iboraga tegishli bolgan sozlar yoki gaplarni yozishni talab qilib. "aqliy hujum" o'tkaziladi. 3. Tushuncha yki g'oyalar o'rtasidagi bog'lanishnio'rnatish talab etiladi. 4. Eslagan variantlarning barchasini yozish tavsiya qilinadi.

#### ***Savol va topshiriqlar:***

- 1. Debatlar uslubini qo'llash texnologiyasi.*
- 2. Aqliy xujum va breynstorm usullarini tashkil etish metodikasi.*
- 3. «Dumaloq stol» usullini qo'llash metodikasi.*

## ***11-MASHG'ULOT***

### **Mavzu: O'qitishning kompleks metodlari.**

**Izoh:** Talaba bu mavzuni to'la o'zlashtirgandan so'ng: talabaning bilim o'zlashtirish darajasini biladi; mustaqil ta'lim mohiyatini, talaba faolligini takomillashtirish haqida aytib beradi; o'zlashtirish darajalarini sanaydi; o'quv jarayonining komponentlari: motiv, o'quv faoliyati, bilim faoliyatlariga tushuncha beradi.


**Mashg'ulot maqsadi:** Modul ta'limida o'quv dasturlari qisqartiriladi, chuqurlashtiriladi va tabaqalashtirish asosida bosqichma-bosqich o'qitish imkoniyati yaratiladi. Unga ko'ra fanning asosiy masala (mavzu)lari bo'yicha umumlashtirilgan ma'lumotlarni beruvchi muammoli hamda yo'riqnoma xarakteridagi ma'ruzalar tashkil etiladi.

#### ***Mashg'lumotni o'qitish natijasida quyidagilarga erishildi:***

- Amaliy faoliyatni tashkil etish orqali ta'lim mazmunini optimallashtirish, o'quv dasturlarining o'zgaruvchanligi, moslashuvchanligini ta'minlash;
- talabalarni kasbiy faoliyatga qiziqtirish asosida faollashtirish, ularda mustaqil o'qib-o'rganish ko'nikmalarini hosil qilish, ichki imkoniyatlarini to'la namoyon bo'lishini ta'minlash;
- amaliy faoliyatni tashkil etishga o'rgatish, talabaning BKMni, ma'lum sifatlarini real, aniq, xolis baholash;
- o'qitishni individuallashtirish.

#### **Umumiy ma'lumotlar:**

Odatda o'quv rejasiga kiritilgan fanlar bo'yicha o'rtacha 3 ta kredit ajratiladi. O'quv fani asoslarining murakkabligi yoki nisbatan osonligiga ko'ra kredit soni 3 ta dan ko'p yoki kam bo'ladi. Zamonaviy sharoitda o'quvfani dasturining mazmuni sillabusda aks etadi. Lug'aviy jihatdan "Sillabus" tushunchasi qadimgi lotinchada "ro'yxat", "katalog" ma'nolarini anglatadi. Tushuncha ilk bor 1864 yilda Rim papasining "Bizning davrimizdagi asosiy yanglishishlar" nomli murojaatnomasiga qo'shimcha qilingan ro'yxat, katalog tarzida qo'llanilgan.



Masofali ta'lim – masofada turib o'quv axborotlarini almashish vositalariga asoslanuvchi maxsus axborot ta'lim muhiti yordamida ta'lim xizmatlari to'plamidan iborat. Masofali ta'limning axborot-ta'lim muhiti talabalarning ta'lim olish ehtiyojlarini qondirishga mo'ljallangan ma'lumotlar, uzatish vositalari, axborot resurslari, o'zaro aloqalar, dasturli apparat va tashkiliy-metodik ta'minotlar tizimidan iborat.

***Savol va topshiriqlar:***

1. «Dumaloq stol» usullini qo'llash metodikasi.
2. Aqliy xujum va breynstorm usullarini tashkil etish metodikasi.
3. Case-study (konkret vaziyatlarni tahlil qilish, vaziyatli tahlil) ta'lim jarayonida usulini qo'llash.
4. Debatlar uslubini qo'llash texnologiyasi.

## ***12-MASHG'ULOT***

### **Mavzu: Pedagogik mahorat, pedagogik texnologiya va pedagogik mahoratning nazariy asoslari.**

**Izoh:** Pedagogik mahorat fanining maqsadi va vazifalari. O'qituvchi faoliyatining tizimi, pedagogik mahorat haqida tushuncha. Pedagogik mahoratning tarkibiy qismlari, pedagogik texnika haqida tushuncha berish. Pedagogik faoliyatning o'ziga xos xususiyatlari. O'qituvchi faoliyatining asosiy yo'nalishlari. Bo'lajak o'qituvchilarga qo'yiladigan talablar.

**Mashg'ulot maqsadi:** Pedagogik faoliyatda pedagogik yo'nalish hosil qilish va bir-biriga ta'sir ko'rsatadigan qobiliyatlarning alohida bir tarkibini vujudga keltirish.

#### ***Mashg'lumotni o'qitish natijasida quyidagilarga erishildi:***

- tarbiyaviy jarayon ijodkorlikdan iboratdir, lekin u pedagogik vaziyatni tahlil qilish mahoratida ham, bolalar bilan bevosita o'zaro hamkorlik qilishda ham namoyon bo'ladi;

- tarbiyachi pirovard natijada pedagogik ta'sir ko'rsatish dramaturgiyasini ishlab chiqadi, uni rivojlantirish sohalarni belgilaydi, tarbiyaviy ta'sirlar rejasini tuzib chiqadi, bu reja u yoki bu tarbiyaviy syujetni rejissorona ko'rishni nazarda tutadi;

- pedagogik faolyat aniq maqsadga qaratilganligi va ayni vaqtda polionizm (ko'p ovozlgi), vaziyat va tarbiyalanuvchi shaxsining o'xshashligi bilan farq qilishi, jo'shqin, samarali, o'zgarishlar kirishga layoqatli bo'lishi, shaxslararo munosabatlar sistemasiga muvofiq bo'ladi.

#### **Umumiy ma'lumotlar:**

Ayrim pedagoglar kasbiy mahorat sirlarini egallash uchun avvalo ta'lim va tarbiya metodlarini takomillashtirishga intiladilar. Bu tabiiy hol, chunki aynan metodlar yordamida pedagog o'z o'quvchilarini turli o'quv faoliyatiga jalb qiladi. Bu bilan o'quvchilarda muayyan bilim, ko'nikma, malakalar va xulqni shakllantiradi. Lekin, aynan bir xil metod bilan ishlagan turli o'qituvchilarning erishgan natijalari ham turlicha bo'lishi aniqlangan. Buning

ustiga, sinovdan o'tkazilgan metodlardan foydalangan bo'lsalarda, ayrim O'qituvchi lar, hatto eng quyi darajadagi o'zlashtirish natijalariga ham erisha olmaganlar. Bunday O'qituvchi lar: "Hamma narsani metodik tavsiya asosida bajardim, nima uchun bolalar qaysarlikni va dars tayyorlamaslikni yana davom ettirmoqdalar?"- deb hayron bo'ladilar. Gap shundaki, o'quvchilarni bilim olishga qiziqtirishda o'qituvchi tomonidan tanlangan metodlar, usullar va topshiriqlardan boshqa sabablar ham ta'sir ko'rsatadi.

Pedagog faoliyatining muvaffaqiyatli kechishi uning shaxsi, harakteri, o'quvchilar bilan muomilasiga ham ko'p jihatdan bog'liq bo'ladi. Lekin, odatda bo'larning ta'lim-tarbiya jarayoniga ta'siri ahamiyatsizdek tuyuladi. Lekin, tajribali pedagog uning hatti-harakati o'quvchilarga qanday ta'sir ko'rsatganligiga ahamiyat berib, unga kerakli tuzatishlar kiritib, takomillashtirib boradi. Bunday O'qituvchi larning ilhombaxsh muammolaridan o'quvchilarda o'qishga intilish o'zlarida yanada yaxshiroq o'qishni uddalay olishiga ishonch hissi paydo bo'ladi. Bu holda ta'lim va tarbiya metodlari pedagog shaxsida mujassamlangan sifatlarni amalga oshirish va undan o'quvchiga axloqiy fazilatlarini o'tkazish vositasiga aylanadi. SHuning uchun ham, pedagogik mahoratni o'qituvchi shaxsi sifatlarining majmui sifatida qarab, uni o'qituvchi yuqori darajada psixologik-pedagogik tayyorgarlikka ega bo'lishi bilan bog'liq bo'lishini e'tirof etish lozim.

O'qituvchi ning kasbnomasida pedagogik mahorat eng asosiy sifat tarzida berilgan. Pedagogik mahoratning o'zi nima?- deb savol bersangiz nechta kishi bo'lsa o'shancha xil javob beradi. Har birini diqqat bilan tinglasangiz, har qaysi javobda ham albatta biror-bir yangilik, o'zak so'z bo'ladi.

Pedagog - bu yuksak madaniyatli mutaxassis, o'z fanini chuqur biluvchi va bolalar psixologiyasini yaxshi biluvchi, ta'lim-tarbiya metodikasini mukammal biluvchidir. Pedagogika tarixida ikkita ta'rif bo'lib, birinchisi pedagogik mahoratni ta'lim-tarbiya metodlari bilan bog'lasa, ikkinchi guruh olimlar esa pedagog shaxsini asosiy omil deb hisoblaydi. Bunday tushunchani ajratib bulmaydi, zero metod ham, shaxs ham bir-birisiz bir-birini to'ldirolmaydi

va metodni olib borish uchun hamma narsani bilish va bajara olish lozimki, bo'lar ta'lim-tarbiya qonunlari, tamoyillari, texnologiya, diagnostika, loyihalash, korreksiyalash va hokazolardan iborat.

Pedagogik shaxs va jamoaga ta'sir ko'rsatishi bo'lib, u ta'lim tarbiyaviy jarayonning texnologiyasini ochib beradi. Unga pedagogni didaktik tashkilotchilik, konstruktivlik, kommunikativ ko'nikmalariga, qo'yiladigan talablarning texnologik usullari, pedagogik ishlarni tashkil etish va boshqalar kiradi. Yosh o'qituvchilar pedagogik texnikasida quyidagi juz'iy kamchiliklar uchraydi:

1. O'quvchi yoki uning ota-onasi bilan sidqidildan so'zlasha olmaslik;
2. G'azabni to'xtata olmaslik yoki uni o'z o'rnida ishlata olmaslik;
3. O'zida ishonchsizlikni engal olmasligi;
4. Nutqini ravon etmaslik;
5. Ortiqcha qattiq qo'llik;
6. Xushmuomala bo'lishdan qo'rqish;
7. Juda tez gapirish (ayniqsa darsda);
8. Ortiqcha harakat yoki bir joyda qotib qolish, qo'llarini qaerga qo'yishni bilmaslik;
9. O'z gavdasini tutishdagi kamchilik (bukchayib, erga qarab yurish, befoyda kulish, ortiqcha harakat) turli jismlarni qo'lida aylantirib yurishi.

#### ***Savol va topshiriqlar:***

1. *Pedagogik maxorat va pedagogik texnologiya tushinchalari.*
2. *Pedagogik mahoratning nazariy asoslari.*
3. *Pedagogik texnologiya pedagogik mahoratning elementi sifatida.*

### **13-MASHG'ULOT**

**Mavzu: Pedagog shaxsi ta'lim amaliyotida va pedagogik fikr tarixida pedagogning mahorati masalalari.**

**Izoh:** Hozirgi kunda pedagog shaxsining insonparvarlik yo'nalishiga ega bo'lishi. Mutaxassislikka oid bilimlarga ega bo'lish. Pedagogik qobilyat.

Pedagogik texnika. Kasbiy bilimlar. Pedagogik qobiliyat tarixidan tushuncha. Qobiliyat haqida tushuncha. Pedagogik qobiliyatning turlari. Kommunikativlik, perseptiv, didaktik, empatiya, konstruktiv, bilish, anglash (tushunish, hissiy barqarorlik) qobiliyatlari.

Kommunikativ qobiliyat – bu pedagogik o'zaro aloqadir. Pedagogik takt haqida tushuncha. O'qituvchi shaxsining fikr almashuv bilan bog'liq xususiyatlari. Pedagogik qobiliyatlar strukturasi kiradigan yordamchi hislatlar va xususiyatlar kabi tushinchalar o'rganiladi.

***Mashg'ulot maqsadi:*** Pedagog shaxsining insonparvarlik yo'nalishga ega bo'lishi va pedagogik faoliyatda pedagogik yo'nalish hosil qilish va bir-biriga ta'sir ko'rsatadigan qobiliyatlarning alohida bir tarkibini vujudga keltirish.

***Mashg'lumotni o'qitish natijasida quyidagilarga erishildi:***

- tarbiyaviy jarayon ijodkorlikdan iboratdir, lekin u pedagogik vaziyatni tahlil qilish mahoratida ham, bolalar bilan bevosita o'zaro hamkorlik qilishda ham namoyon bo'ladi;

- pedagogik faolyat aniq maqsadga qaratilganligi va ayni vaqtda polionizm (ko'p ovozlgi), vaziyat va tarbiyalanuvchi shaxsining o'xshashligi bilan farq qilishi, jo'shqin, samarali, o'zgarishlar kirishga layoqatli bo'lishi, shaxslararo munosabatlar sistemasiga muvofiq bo'ladi.

**Umumiy ma'lumotlar:**

Pedagog shaxsining insonparvarlik yo'nalishga ega bo'lishi o'quvchi shaxsini hurmat qilish, ayrim masalalarni o'zini o'quvchi o'rnida sezib hal etishi, adolatli bo'lishi, pedagogik faoliyatni pirovard maqsadga barkamol avlod tarbiyalashga yo'naltirishda ifodalanadi. O'z davrida Ibn Sino ham o'qituvchi shaxsida halollik, adolat, poklik, mehnatsevarlik, fidoiylik, odamgarchilik kabi xislatlarni qadrlagan.

Insonparvar bo'lish mahoratli pedagog faoliyatining barcha jihatlarini qamrab oladi va uning aniq vazifalarini ham belgilab beradi. Quyidagi holatni tahlil qilaylik. Yosh o'qituvchi bolalarni Temuriylar muzeyiga olib bordi, Lekin «Nima uchun Amir Temur haqida o'quvchilarga so'zlab berish kerak?»-degan

savolga javob topolmaydi. Mahoratli pedagog esa, bu sayohatahamiyatini butunlay boshqacha tushunib, u o'quvchilarda tariximizni bilish, uni ardoqlash, ulug' ajdodlarimiz borligi bilan quvonish va nihoyat milliy g'urur vujudga keltirishda katta ahamiyatga ega ekanligi haqida to'liqinlanib gapiradi.

Pedagogik texnika ikki turdagi ko'nikmalar guruhidan iborat. Birinchisi-o'zini o'zi (gavdasi, hissiy holati va nutq texnikasi) boshqara olishi, ikkinchisi-pedagogik vazifalarni hal etishda o'quvchilar bilan hamkorlikda ishlashni uddalash (didaktik, tashkilotchilik malakalari, bevosita ta'sir etish texnikasi), bu haqda keyingi ma'ro'zalarda batafsil to'xtalamiz.

Pedagogik mahoratning biz yuqorida ko'rib chiqqan tarkibiy qismlari, uni sistemaviy harakterga ega ekanligini anglatadi. Pedagogik mahoratning yaqqol tashqi belgilari: faoliyatni aniq maqsadga yo'naltirilganligi, vazminlik, mulohaza yuritish, o'quvchilar bilimini puxtaligi, eng maqbo'l vositalarni tanlanganligi, o'z faoliyatiga ijodiy yondoshuvi.

O'qituvchilik kasbini o'rgatish mumkin emas, ammo uni o'rganish mumkin. Pedagogik mahoratni shakllantirish o'qituvchi larni tayyorlashda markaziy o'rin egalaydi. Shuning uchun psixologiya-pedagogika predmetlari oliy maktabda o'qituvchilarni tayyorlashning diqqat markazida bo'ladi. "Pedagogik mahorat asoslari" kursini o'rganishda quyidagi prinsiplarga asoslanilsa, bu faoliyat muvaffaqiyatli amalga oshadi.

#### ***Savol va topshiriqlar:***

- 1. Pedagog shaxsining insonparvarlik yo'nalishga ega bo'lishi.*
- 2. Ta'limda qo'llaniladigan kommunikativ qobiliyatning o'ziga xosligi.*
- 3. Pedagogik mahorat asoslarini egallash tamoyillari.*

### **14-MASHG'ULOT**

#### **Mavzu: Pedagogik qobiliyat. Pedagogning kommunikativ qobiliyati.**

***Izoh:*** Hozirgi kunda pedagog shaxsining insonparvarlik yo'nalishiga ega bo'lishi. Mutaxassislikka oid bilimlarga ega bo'lish. Pedagogik qobiliyat.



Pedagogik texnika. Kasbiy bilimlar. Pedagogik qobiliyat tarixidan tushuncha. Qobiliyat haqida tushuncha. Pedagogik qobiliyatning turlari. Kommunikativlik, perseptiv, didaktik, empatiya, konstruktiv, bilish, anglash (tushunish, hissiy barqarorlik) qobiliyatlari. Kommunikativ qobiliyat – bu pedagogik o'zaro aloqadir. Pedagogik takt haqida tushuncha. O'qituvchi shaxsining fikr almashuv bilan bog'liq xususiyatlari. Pedagogik qobiliyatlar strukturasi kiradigan yordamchi hislatlar va xususiyatlar kabi tushinchalar o'rganiladi.

***Mashg'ulot maqsadi:*** Pedagogik faoliyatda pedagogik yo'nalish hosil qilish va bir-biriga ta'sir ko'rsatadigan qobiliyatlarning alohida bir tarkibini vujudga keltirish.

***Mashg'lumotni o'qitish natijasida quyidagilarga erishildi:***

- tarbiyaviy jarayon ijodkorlikdan iboratdir, lekin u pedagogik vaziyatni tahlil qilish mahoratida ham, bolalar bilan bevosita o'zaro hamkorlik qilishda ham namoyon bo'ladi;

- tarbiyachi pirovard natijada pedagogik ta'sir ko'rsatish dramaturgiyasini ishlab chiqadi, uni rivojlantirish sohalarni belgilaydi, tarbiyaviy ta'sirlar rejasini tuzib chiqadi, bu reja u yoki bu tarbiyaviy syujetni rejissorona ko'rishni nazarda tutadi;

- pedagogik faolyat aniq maqsadga qaratilganligi va ayni vaqtda polionizm (ko'p ovozlgi), vaziyat va tarbiyalanuvchi shaxsining o'xshashligi bilan farq qilishi, jo'shqin, samarali, o'zgarishlar kirishga layoqatli bo'lishi, shaxslararo munosabatlar sistemasiga muvofiq bo'ladi.

**Umumiy ma'lumotlar:**

Pedagogik mahorat institut xayotini pedagoglashtirilganda muvaffaqiyatli kechadi. Ayniqsa talabalar bilan tugaraklarda, klublarda, studiyalarda ishlash foydalidir. Faqat oliy maktabning hamma pedagogik jamoasi va talabalarning o'zaro birgalikdagi faoliyati kelgusidagi pedagogda yuqori pedagogik mahoratni rivojlantishga qaratilgan bo'lishi lozim.

O'z hissiyotlarini yaratishda o'qituvchi nutq vositasining intonatsiyasi, fonetikasidan, imo-ishoralari, mimikadan va ifodali gavda tuzilishidan

foydalanadi. Nutq orqali o'qituvchining hissiyoti o'quvchilar tomonidan boshdan kechirilishi, u orqali o'zining munosabatini, ahloqiy qadriyatlarni o'quvchilarga o'tkazadi. Bunday missiy garmoniyaga erishish natijasida u o'quvchining milliy dunyosiga aktiv ta'sir ko'rsatadi, uning bilish va amaliy faoliyatida o'ziga xos katalizator hisoblanadi. Xohlagan o'qituvchi bilishi lozimki, shaxsning e'tiqodi hissiyotsiz amalga oshmaydi.

Amaliy o'quv tarbiya ishlarda o'qituvchi hissiyotining turlarini, ularning xususiyatlarini va o'ziga xosligini bilishi zarur. Insonning ma'naviy dunyosi - bu juda xilma-xil va beto'xtov hayajonlardan va hissiyotlardan iboratdir. Hissiyot hamma dunyoviy sezgilarimizga va dunyoviy munosabatlarimizga kirib keladi. Buyuk rus pedagogi K.D. Ushinskiy aytganidek hissiyotda odamning butun turmush-tarzi, tarixiyligi xam ifodalanadi.

Tafakkur va xissiyot "bosh" va "yurak" ning o'zaro uyg'unligiga o'qituvchi ning pedagogik mahoratiga asoslanadi. Hissiyotni birinchi va ikkinchi darajaga ajratish mumkin.

Insonning birinchi darajali hissiyoti evolyusiyaning biologik qatlamida shakllanadi va rivojlanadi, u hayvonlardagidek instinkt va sezgilardan iborat bo'lgan hissiyotdir.

Insonparvar bo'lish mahoratli pedagog faoliyatining barcha jihatlarini qamrab oladi va uning aniq vazifalarini ham belgilab beradi. Mahoratli pedagog esa, bu sayohatahamiyatini butunlay boshqacha tushunib, u o'quvchilarda tariximizni bilish, uni ardoqlash, ulug' ajdodlarimiz borligi bilan quvonish va nihoyat milliy g'urur vujudga keltirishda katta ahamiyatga ega ekanligi haqida to'lqinlanib gapiradi.

Pedagogik texnika ikki turdagi ko'nikmalar guruhidan iborat. Birinchisi-o'zini o'zi (gavdasi, hissiy holati va nutq texnikasi) boshqara olishi, ikkinchisi-pedagogik vazifalarni hal etishda o'quvchilar bilan hamkorlikda ishlashni uddalash (didaktik, tashkilotchilik malakalari, bevosita ta'sir etish texnikasi), bu haqda keyingi ma'ro'zalarda batafsil to'xtalamiz.

Pedagogik mahoratning biz yuqorida ko'rib chiqqan tarkibiy qismlari, uni sistemaviy harakterga ega ekanligini anglatadi. Pedagogik mahoratning yaqqol tashqi belgilari: faoliyatni aniq maqsadga yo'naltirilganligi, vazminlik, mulohaza yuritish, o'quvchilar bilimini puxtaligi, eng maqbo'l vositalarni tanlanganligi, o'z faoliyatiga ijodiy yondoshuvi.

***Savol va topshiriqlar:***

1. *Pedagog shaxsining insonparvarlik yo'nalishga ega bo'lishi.*
2. *Ta'limda qo'llaniladigan kommunikativ qobiliyatning o'ziga xosligi.*
3. *Pedagogik mahorat asoslarini egallash tamoyillari.*

**15-MASHG'ULOT**

**Mavzu: Muloqot madaniyati va ta'lim oluvchining psixologik faoliyati.**

***Izoh:*** Pedagogik muomala va pedagogik muloqotning mohiyati, uning o'ziga xos xususiyatlari. Sharqona tarbiya va uning muloqotga ta'siri. O'zbek urf-odatlarini, sharqona muomala madaniyati. Milliy madaniyatning muloqotga ta'siri. Sof adabiy tilda so'zlashishga odatlanish. Muloqot madaniyatiga erishish yo'llari. Muloqot funksiyalari. Pedagogik muloqotning turlari va talimda qo'llashning maqsadlari, vazifalari o'rganiladi.

***Mashg'ulot maqsadi:*** Pedagogik faoliyatda pedagogik yo'nalish hosil qilish va bir-biriga ta'sir ko'rsatadigan qobiliyatlarning alohida bir tarkibini vujudga keltirish.

***Mashg'lumotni o'qitish natijasida quyidagilarga erishildi:***

- tarbiyaviy jarayon ijodkorlikdan iboratdir, lekin u pedagogik vaziyatni tahlil qilish mahoratida ham, bolalar bilan bevosita o'zaro hamkorlik qilishda ham namoyon bo'ladi;
- tarbiyachi pirovard natijada pedagogik ta'sir ko'rsatish dramaturgiyasini ishlab chiqadi, uni rivojlantirish sohalarni belgilaydi, tarbiyaviy ta'sirlar rejasini tuzib chiqadi, bu reja u yoki bu tarbiyaviy syujetni rejissorona ko'rishni nazarda tutadi;

- pedagogik faolyat aniq maqsadga qaratilganligi va ayni vaqtda polionizm (ko'p ovozlgi), vaziyat va tarbiyalanuvchi shaxsining o'xshashligi bilan farq qilishi, jo'shqin, samarali, o'zgarishlar kirishga layoqatli bo'lishi, shaxslararo munosabatlar sistemasiga muvofiq bo'ladi.

### **Umumiy ma'lumotlar:**

O'qituvchining takomillashgan nutqga ega bo'lishi, o'quv materialini o'quvchilar tomonidan puxta o'zlashtirilishini ta'minlash garovidir. Bolalar o'qituvchi nutqiga juda e'tibor beradilar. Biror harf yoki tovushni noto'g'ri aytilishi kulgiga sabab bo'ladi. Bir ohangdagi nutq-tezda charchatadi. Individual suhbat paytidagi baland ovozdan o'quvchi o'zini aldanayotgandek his etadi. Bu o'qituvchiga ishonchsizlik bilan qarash hislarini uyg'otadai. Ayrim mutaxassislar tovush va uning tembri tug'ma xususiyat deb aytishadi. Lekin hozirgi eksperimental fiziologiya tovush sifatini o'zgartirish mumkinligini tasdiqlaydi. Bugungi kunda nutq texnikasi bo'yicha bir necha mashq komplekslari ishlab chiqilgan. Ular asosan teatr pedagogikasi tajribasiga asoslangan bo'lib, so'zlashish paytida nafas olish, tovush hosil qilish va uni ma'nioli ifodalash malakalarini takomillashtiradi, bu esa o'qituvchi ga o'z so'zi mazmunini o'quvchilarga yanada to'laqonliroq qilib etkazishga imkon beradi.

Nafas olish organizmga hayot bag'ishlovchi fiziologik funksiyani bajaradi. Shu bilan birga nutqning energiya bazasi bo'lib ham hisoblanadi. Nutq so'zlayotganda nafas olish fonatsion nafas olish deb ataladi (rengo-tovush). Kundalik hayotdagi nutq asosan dialog shaklida bo'ladi. SHuning uchun ham nafas olish ortiqcha qiyinchilik tug'dirmaydi. Dars davomida o'qituvchi juda ko'p gapiradi, yangi mavzuni tushuntiradi, ma'ro'za o'qiydi. Agar o'qituvchi nafas olish texnikasini yaxshi egallamagan bo'lsa, uning qon tomirlarini urishi tezlashib, yuzini qizarib ketishi, nafas qisishi sodir bo'lishi mumkin.

Nutqiy muomala salomlashishdan boshlanadi. Salomlashishdagi xushmuomalalik undan keyingi yaxshi suhbatga debocha bo'ladi. Tinglovchida yaxshi kayfiyat paydo qiladi. Agar salomlashish quruq, iltifotsiz bo'lsa, keyingi suhbatga salbiy ta'sir etishi mumkin. Ko'p asrlik odatiy an'analarimizga ko'ra,

«Assalomu alaykum» ning javobi «Vaalaykum assalom» dan iborat. Keyingi davrlarda yoshlar orasida salom ham, alik ham to'mtoqlashib ketdi, ya'ni salom berish uchun ham, alik olish uchun ham «salom» so'zi ishlatiladigan bo'ldi. Bu tarixiy an'analarimizdan chetlashishdir.

Madaniyatli kishi o'z aybini bo'yniga ola bilishi, aybi uchun kechirim so'rashni ham bilishi zarur. O'z aybi uchun kechirim so'rash, o'z g'ururini erga urish emas, balki odoblilik, xushmuomalalik alomatidir. «Kechirasiz, mendan o'tibdi» yoki «Avf eting, bundan so'ng takrorlanmaydi» deyish bilan kishi o'zining odobliligini namoyish etadi, xolos.

Etuk kishiga xos fazilatlardan yana biri xayrlashuv odobidir. Tilimizda xayrlashishda ishlatiladigan «Xayr, sog' bo'ling», «Xayr, ko'rishguncha», «Xayr, omonlikda ko'rishaylik» kabi ta'sirchan iboralar mavjud. O'qituvchi sinfdan chiqayotganda «Xayr, sog' bulinglar», «Xayr, yaxshi qolinglar» iborasini ishlatsa, o'rinli bo'ladi.

Ta'lim jarayonida ta'lim beruvchining vazifasi darsda ishlash xolatini yuzaga keltirishgina emas, balki o'quvchilarning darsda o'tiladigan materialini idrok etishga tayyor turishlarini ko'zatish hamdir. Ta'lim jarayonining samaradorligi ko'p jihatdan o'qituvchi tomonidan beriladigan ko'rsatmalarga ham bog'liq. O'qituvchining roli shundan iboratki, u o'quvchilarga tegishli ustanovkani hosil qilishi, nimani vaqtincha, nimani umrbod esda olib qolishi keraqligini, nimani butunlay esda olib qolmasdan, faqat tushunib olish kifoya qilishini, nimani so'zma-so'z esda olib qolishni, nimaning ma'nosini o'z so'zlari bilan aytib berish uchun esda olib qolish zarurligini ko'rsatib o'tishi lozim. Ko'zatishlar ko'rsatadiki, bunday ko'rsatmalar berilmaganda, o'quvchilarda ko'pincha noto'g'ri tasavvurlar vujudga keladi.

O'qitishning emotsionalligi ta'limning muvaffaqiyatliligini ta'minlovchi omillardan biridir. Ta'lim berish jarayoni emotsional jarayon. Agar o'quvchilarga berilayotgan axborot ularda hech qanday his-tuyg'u uyg'otmasa, uni o'quvchilar yaxshilab esda olib qolmaydilar. O'tkazilgan tajribalar o'quvchilar hech qanday his-tuyg'u uyg'otmaydigan materialga qaraganda,

emotsional ruhdagi materialni yaxshiroq eslab qolishlarini ko'rsatadi. O'qituvchi o'quv jarayonining emotsional tomoni haqida g'amxo'rlik qilishi kerak. Bu muammo juda muhim ahamiyatga ega. Chunki, birinchidan, ta'limning mazmuni nihoyatda murakkablashib, xajmi esa g'oyat kattalashib ketgan. Uning muvaffaqiyatli o'zlashtirilishiga erishish uchun o'quvchilarning o'quv faoliyatini kuchaytirishi lozim. Ijobiy tuyg'ular o'quv mehnatining samaradorligiga kuchli ta'sir etadi. Hafsala bilan bajarilgan beg'araz munozara paydo bo'ladi, bahslashiladi, befarq qaragan yoki undan ham beshbattar, salbiy munosabatda bo'lishgan ishga esa hech qanday xafsala bo'lmaydi.

### ***Savol va topshiriqlar:***

- 1. Muloqat madaniyati deganda nimani tushinasiz?*
- 2. Ta'limda muloqat madaniyatining avzalliklari va kamchiliklari.*
- 3. Ta'lim oluvchining psixologik faoliyati nima?*

## **16-MASHG'ULOT**

### **Mavzu: Pedagogik texnika va uni shakllantirish usullari.**

**Izoh:** Pedagogik texnika o'qituvchi faoliyatining tizimi, pedagogik mahorat haqida tushuncha. Pedagogik mahoratning tarkibiy qismlari, pedagogik texnika haqida tushuncha berish. Pedagogik faoliyatning o'ziga xos xususiyatlari. O'qituvchi faoliyatining asosiy yo'nalishlari. Bo'lajak o'qituvchilarga qo'yiladigan talablar.

Hamkorlikda o'zaro o'qish turlari. Guruhli o'qitish texnologiyasining shakli. Sinfda guruhli faoliyatning asoslari. Guruhli o'qitish shaklida o'qituvchining vazifasi. Bugungi kunda jaxon ta'lim tizimida qo'llaniladigan ta'lim turlari va ularning vositalar haqida bayon qilinadi.

**Mashg'ulot maqsadi:** Pedagogik faoliyatda pedagogik yo'nalish hosil qilish va bir-biriga ta'sir ko'rsatadigan qobiliyatlarning alohida bir tarkibini vujudga keltirish.

***Mashg'lumotni o'qitish natijasida quyidagilarga erishildi:***

- tarbiyaviy jarayon ijodkorlikdan iboratdir, lekin u pedagogik vaziyatni tahlil qilish mahoratida ham, bolalar bilan bevosita o'zaro hamkorlik qilishda ham namoyon bo'ladi;

- tarbiyachi pirovard natijada pedagogik ta'sir ko'rsatish dramaturgiyasini ishlab chiqadi, uni rivojlantirish sohalarni belgilaydi, tarbiyaviy ta'sirlar rejasini tuzib chiqadi, bu reja u yoki bu tarbiyaviy syujetni rejissiorona ko'rishni nazarda tutadi;

- pedagogik faolyat aniq maqsadga qaratilganligi va ayni vaqtda polionizm (ko'p ovozlgi), vaziyat va tarbiyalanuvchi shaxsining o'xshashligi bilan farq qilishi, jo'shqin, samarali, o'zgarishlar kirishga layoqatli bo'lishi, shaxslararo munosabatlar sistemasiga muvofiq bo'ladi.

### **Umumiy ma'lumotlar:**

Pedagogik texnika usullar to'plami, nutq va muloqot vositalari esa uni egallash vositalaridir. Pedagogika quyidagi ikki guruh yig'indisidan iborat:

1. Pedagog o'z xulqini boshqara olishi:

a) o'z gavdasini boshqara olishi ( mimikalar, pantamimikalar);

b) hissyoti va kayfiyatini boshqara olishi (ortiqcha ruhiy charchashlarni yo'qota olishi, ijodiy hissiyotlarni vujudga keltira olishi);

v) ijtimoiy-perseptiv qobiliyatlari (diqqat «yuzidan uqib olish», kuzatuvchanlik, tasavvuri);

g) nutq texnikasi nafas olishi, ovozini tinglovchilarga moslashishi, talaffuz tarzi, nutq sur'ati.

2. Pedagogning tashqi ko'rinishi va uning maqsadli yo'nalganligi.

Pedagogik shaxs va jamoaga ta'sir ko'rsatishi bo'lib, u ta'lim tarbiyaviy jarayonning texnologiyasini ochib beradi. Unga pedagogni didaktik tashkilotchilik, konstruktivlik, kommunikativ ko'nikmalariga, qo'yiladigan talablarning texnologik usullari, pedagogik ishlarni tashkil etish va boshqalar kiradi.

Yosh o'qituvchilar pedagogik texnikasida quyidagi juz'iy kamchiliklar uchraydi:

1. O'quvchi yoki uning ota-onasi bilan sidqidildan so'zlasha olmaslik;
2. G'azabni to'xtata olmaslik yoki uni o'z o'rnida ishlata olmaslik;
3. O'zida ishonchsizlikni engal olmasligi;
4. Nutqini ravon etmaslik;
5. Ortiqcha qattiq qo'llik;
6. Xushmuomala bo'lishdan qo'rqish;
7. Juda tez gapirish (ayniqsa darsda);
8. Ortiqcha harakat yoki bir joyda qotib qolish, qo'llarini qaerga qo'yishni bilmaslik;
9. O'z gavdasini tutishdagi kamchilik (bukchayib, erga qarab yurish, befoyda kulish, ortiqcha harakat) turli jismlarni qo'lida aylantirib yurishi.

#### ***Savol va topshiriqlar:***

1. *Ta'lim tizimiga pedagogik texnologiyani tatbiq etishning zarurati.*
2. *Pedagogik texnologiyaning nazariy asoslari.*
3. *Pedagogik texnologiyalarning turlari. An'anaviy va noan'anaviy pedagogik texnologiyalar.*

### **17-MASHG'ULOT**

#### **Mavzu: O'quv va tarbiya jarayonida pedagog mahorati va pedagog mehnatini tashkil etishning ilmiy asoslari.**

***Izoh:*** Baholash, o'quv materiallarini yoritish va uzatishda amalga oshiriladigan odimlovchi psixologik jarayon tamoyili. Odimlovchi o'quv tadbiri - bu texnologik usul bo'lib, unda pedagog mahorati, o'quv materiallari, axborot bo'laklari va o'quv vazifalari (bilim va malakalarni samarali o'zlashtirishni ta'minlay oladigan va ta'lim oluvchining bilimlarini o'zaro bog'langan va optimal bo'lgan qismlardam iboratdir

***Mashg'ulot maqsadi:*** Pedagogik ma'lumotlarni ajratish ko'nikmasi va ularni to'g'ri tanlay bilish.

***Mashg'lumotni o'qitish natijasida quyidagilarga erishildi:***



- tarbiyaviy jarayon ijodkorlikdan iboratdir, lekin u pedagogik vaziyatni tahlil qilish mahoratida ham, bolalar bilan bevosita o'zaro hamkorlik qilishda ham namoyon bo'ladi;

- tarbiyachi pirovard natijada pedagogik ta'sir ko'rsatish dramaturgiyasini ishlab chiqadi, uni rivojlantirish sohalarni belgilaydi, tarbiyaviy ta'sirlar rejasini tuzib chiqadi, bu reja u yoki bu tarbiyaviy syujetni rejissiorona ko'rishni nazarda tutadi;

- pedagogik faolyat aniq maqsadga qaratilganligi va ayni vaqtda polionizm (ko'p ovozlgi), vaziyat va tarbiyalanuvchi shaxsining o'xshashligi bilan farq qilishi, jo'shqin, samarali, o'zgarishlar kirishga layoqatli bo'lishi, shaxslararo munosabatlar sistemasiga muvofiq bo'ladi.

### **Umumiy ma'lumotlar:**

Pedagogik faoliyat o'z mohiyatiga ko'ra ijodiy xarakterga ega. Ma'lumki, inson oldida biror muammo turgandagina ijodkorlikka ehtiyoj tug'iladi. O'qituvchi lik faoliyati ana shunday xususiyatga ega. Pedagogik faoliyat kishi shaxsini, uning dunyoqarashi, e'tiqodi, ongi, xulq-atvorini shakllantirishdek umumiy maqsadga buysungan son-sanoqsiz pedagogik masalalarni echish jarayonidir.

Pedagogik ijodkorlik manbai-bu pedagogik tajribadir. Pedagogik tajriba-muammoli vaziyatlarga juda boydir. Ilg'or pedagogik tajriba deganda, biz o'qituvchi ning o'z pedagogik vazifasiga ijodiy yondashishini, o'quvchilarning ta'lim-tarbiyasida yangi, samarali yo'l va vositalarni qidirib topishini tushunamiz.

Ilg'or pedagogik tajriba o'qituvchi tomonidan qo'llaniladigan shu shakli va usullari, uslub va vositalaridir. Ular vositasida o'quv-tarbiyaviy ishlarda eng yuqori natijalarga erishiladi.

Ilg'or pedagogik tajribani o'rganib, unga asoslanib yangi pedagogik hodisa va qonuniyatlarni ochish o'quv-tarbiya jarayoniga yaxshi sifatli o'zgarishlar kiritadi, o'quvchilarni bilish faoliyatini boshqarish, yangi ko'rinishdagi o'quv jarayonini modellashtirish muammolarini echishga sabab

bo'ladi. Ijodiy ishlaydigan o'qituvchi faqatgina bolalarni muvaffaqiyatli o'qitish va tarbiyalash, ilg'or O'qituvchilar ish tajribalarini o'rganish bilangina cheklanib qolmasdan, tadqiqotchilik ko'nikma va malakalariga ham ega bo'lishi zarur.

O'qituvchi ning kasbnomasida pedagogik mahorat eng asosiy sifat tarzida berilgan. Pedagogik mahoratning o'zi nima?- deb savol bersangiz nechta kishi bo'lsa o'shancha xil javob beradi. Har birini diqqat bilan tinglasangiz, har qaysi javobda ham albatta biror-bir yangilik, o'zak so'z bo'ladi.

Xalqning o'zi tomonidan yaratilgan va xalqchilik asosiga qurilgan tarbiya shunday tarbiyaviy kuchga egaki, bunday kuch abstrakt g'oyalarga asoslangan yoki boshqa xalqlardan olingan eng yaxshi tizimlarda ham yo'qdir» shinskiy xalqchilik deb har bir xalqning o'ziga xosligini tushunar ediki, bu o'ziga xoslik o'sha xalq yashashi va mehnat qilishi lozim bo'lgan tarixiy taraqqiyot, geografik va tabiiy sharoitlar bilan ifodalanadi.

U «Ijtimoiy tarbiyada xalq ruhi» sarlavhali maqolasida tarbiyaning xalqchilik ruhida bo'lishi kerakligini aytib, boshqa xalq pedagogikasini mexanik suratda rus tuprog'iga ko'chirishni aqlga mutlaqo muvofiq emasligini ta'kidlaydi.

Ushinskiy tarbiyada xalq ruhining eng yaxshi ifodasi ona tili ekanligiga, rus bolalarini o'qitishda rus tili asos bo'lishligini; boshlang'ich maktablardagi ta'lim ham bolalarni rus tarixi, Rossiya geografiyasi va uning tabiati bilan tanishtirmog'i lozim deydi. Ushinskiyning pedagogika tizimida ona tilining tarbiyaviy va ta'limiy ahamiyati tarbiyaning asosi bo'lgan xalqchilik bilan chambarchas bog'liqdir.

### ***Savol va topshiriqlar:***

- 1. O'quvchining shaxsi ta'lim jarayonida ob'ekt va sub'ekt sifatida. Shaxs sifatleri tuzilishining turtta darajasi; temperament, psixik jarayonlari xususiyatlari.*
- 2. Bilish, mahorat va ko'nikmalari. Aqliy harakat usullari.*
- 3. Pedagogning inovatsion faoliyati va inovatsion faoliyatining tuzilishi.*

## IZOHLI LUG'AT - GLOSSARIY

**Aksiologiya** – qadriyatlar to'g'risidagi falsafiy ta'limot, aksiologik qadriyatlar mohiyati.

**Aksiologik yondashuv** – insonparvarlik pedagogikasiga xos bo'lgan xususiyat, bunda inson ijtimoiy qadriyat va jamiyat rivojlanishining pirovard maqsadi sifatida qaraladi. Aksiologik tafakkur o'zaro aloqadagi hamda o'zaro harakatdagi dunyo konsepsiyasiga asoslanadi.

**Amaliy tadqiqotlar** – pedagogik jarayonning ayrim jihatlarini chuqur o'rganishga qaratilgan ishlar, pedagogik amaliyot qonunlarini ochish.

**Axborotli malaka** – ta'lim-tarbiya masalalariga axborotlarni moslashtirish va talqin qilish malakasi.

**Axloq** – shaxsning jamiyatga va boshqa kishilarga nisbatan burchini belgilab beruvchi me'yorlar tizimi, ma'naviy xulq qoidalari, u ijtimoiy ong shakllaridan biri.

**Bilish, anglash** – dunyo haqidagi yangi bilimlar hisoblanadigan sub'ekt va ob'ektning o'zaro ta'sirini, voqelikning ruhiyatda qayta ta'sir etilishi va aks ettirish jarayonidir.

**Bilish faoliyati** – idrok qilish hissi, nazariy fikrlash va amaliy faoliyat birligi.

**Burch** – muayyan axloqiy majburiyatlarni his qilish, uning zarurligini anglash.

**Boshqarish** – tashkil etish, qaror qabul qilishga qaratilgan faoliyat, ob'ektni o'z xizmat vazifasi doirasida nazorat qilish, tartibga solish, ishonchli axborotlar asosida tahlil qilish va yakun yasash.

**Vazifa** – maqsad va uni amalga oshirish bosqichlarining oydinlashtirilishi.

**Verbal** – ifodali, og'zaki.

**Gumanizm** – insonning insonga bo'lgan mehr-muhabbati, uning sha'ni, qadrini hurmat qilish, kishi manfaatlarini uchun kayg'urish g'oyalari bilan sug'orilgan va kishilar o'rtasidagi tenglik, halollik, insoniy munosabat tamoyillariga asoslangan dunyoqarash.

**Davlat ta'lim standarti** – uzluksiz ta'limning muayyan bosqichida shaxs (mutaxassis)ning tayyorgarlik darajasi va mazmuniga qo'yiladigan minimum talablar.

**Dars** – ma'lum maqsad asosida, belgilangan vaqtda alohida, bir xil yoshdagi o'quvchilar, yoshlar bilan o'qituvchi rahbarligida olib boriladigan ta'lim jarayoni.

**Didaktika** – talim va o'qitish nazariyasi hamda o'qitish jarayonida tarbiyalash mazmunini ifodalovchi pedagogikaning tarkibiy qismi.

**Jamoa** – insonparvarlik va javobgarlik mas'uliyatlariga bog'liqligi bilan xarakterlanadigan munosabatlar hamda hamkorlikdagi ijtimoiy ijobiy faoliyatga asoslangan, kishilarning tashkil etilgan umumiyliigi, jamoasidir.

**Idrok** – mazkur muddatda sezgi organlarida ularning bevosita ta'sir etishi davomidagi bir butun hodisalar yoki narsalarning inson ongida aks etishidir.

**Izohlash, tushuntirish** – og'zaki izoh, yoritilishi lozim bo'lgan turli materiallarni izohlash, isbotlash, tahlil qilish Ilmiy muammo– fan orqali hal qilinadigan asosiy ziddiyatlar.

**Istiqbolni belgilash malakasi** – ijtimoiy va bilish jarayonlarini rejalashtirish va boshqarish.

**Intellekt** – shaxsning turli faoliyat turlarini muvaffaqiyat bilan o'zlashtirishini belgilaydigan tug'ma va o'zlashma barcha aqliy qobiliyatlar to'plami.

**Kasbiy-pedagogik muloqot** – pedagog va talabaning o'zaro zich ijtimoiy psixologik aloqasi tizimi bo'lib, uning mazmuni axborotlar ayriboshlash, tarbiyaviy ta'sir o'tkazish, kommunikativ vositalar yordamida o'zaro munosabatlarini tashkil etish hisoblanadi.

**Kasbiy tayyorgarlik** – bo'lajak mutaxassisning psixologik, psixofiziologik, jismoniy hamda ilmiy-nazariy va amaliy tayyorgarligi.

**Kasbiy bilimdonlik** – pedagogik faoliyat yuritish uchun zarur bo'lgan nazariy va amaliy tayyorgarlik birligi.

**Kuzatish** – biror pedagogik hodisa bo'yicha aniq faktik material olish maqsadini ko'zlagan idrok etishning shakli.

**Kreativlik** – betakror qadriyatlar yaratuvchi, nostandart echimlar qabul qiluvchi individning botiniy qobiliyati.

**Ko'nikma** – o'rganish natijasida qo'lga kiritilgan, beixtiyor, avtomatik tarzda bajariladigan harakat. Ko'nikmalar biror harakatni nazoratsiz, avtomatik tarzda bajarish qobiliyatidir.

**Maqsad** – bo'lg'usi natijalar haqida har doim aqlan o'ylab ko'rilgan, rivojlantirilgan xayoliy tasavvurlar, kelgusidagi rejalar.

**Metod** – 1) tabiiy va ijtimoiy hayot hodisalarini tadqiq qilish, bilish usuli; 2) harakat qilish usuli, tarzi.

**Metodika** – biror ishni tashkil qilishda maqsadga muvofiq qo'llanadigan usullar.

**Metodologiya** – dunyoni ilmiy bilish metodi haqidagi ta'limot.

**Motiv** – ma'lum ehtiyojlarni qondirish uchun asos bo'ladigan kishining ichki faoliyat mazmuni.

**Muammoli o'qitish** – o'quv mashg'ulotini tashkil etish shakli bo'lib, unda pedagog rahbarligida muammoli vaziyat yuzaga keltiriladi va uning hal qilinishida ta'lim oluvchilar faol mustaqil harakat qiladilar.

**Pedagoglik ixtisoslik** – ta'lim natijasi o'laroq bilim, malaka va ko'nikmalar majmuidan iborat kasbiy guruh doirasidagi faoliyat turi.

**Pedagogik texnologiya** – 1) oldindan loyihalashtirilgan pedagogik jarayonni amaliyotga rejali va bir maromda tatbiq etish yoki pedagogik masalani echishga qaratilgan pedagogning uzluksiz o'zaro bog'langan harakatlari tizimidir; 2) ta'lim-tarbiya metodlarining u yoki bu to'plamini qo'llash bilan bog'liq bo'lgan pedagogning uzluksiz, o'zaro shartlangan harakatlari tizimidir; 3) ta'lim shakllarini optimallashtirishga qaratilgan, texnika hamda inson omillari, uning o'zaro hamkorligi asosida o'qitish jarayoni va bilimlarni egallash, yaratish, qo'llash hamda belgilashning tizimli usulidir.

**Pedagogik faoliyat** – ta’lim maqsadlarini amalga oshirishga qaratilgan ijtimoiy faoliyatning alohida turi.

**Pedagogik jarayon** – ta’lim masalalari, uning taraqqiyotini hal qilishga qaratilgan, maxsus tashkil etilgan pedagog va tarbiyalanuvchilarning o’zaro munosabatlari.

**Pedagogik mahorat** – pedagogik jarayonni bilish, uni tashkil eta olish, harakatga keltira olish, pedagogik jarayonning yuqori samaradorligini belgilovchi shaxsning ish sifati va xususiyatlari sintezi.

**Pedagogik muloqot** – ta’lim oluvchilarning maqsadlari hamda ularning birgalikdagi faoliyatlari mazmunidan kelib chiqadigan o’zaro aloqalarni o’rnatish va rivojlantirishni, bir-birini anglash va qo’llab-quvvatlashni tashkil etishning ko’p qirrali jarayoni.

**Pedagogik takt** – bolalar faoliyatining turli doiralarida ular bilan muloqotda bo’lishning pedagogik tamoyili, o’lchovi, o’quvchilar bilan ularning shaxsiy xususiyatlarini hisobga olgan holda to’g’ri muloqotda bo’la olish malakasi.

**Pedagogik malaka** – muayyan toifadagi vazifalarni hal qilish imkoniyatiga ega bo’lgan mutaxassisning kasbiy pedagogik tayyorgarligi darajasi va turi.

**Pedagogik texnika** – 1) har bir ta’lim oluvchiga va jamoaga pedagogik ta’sir o’tkazishni samarali qo’llash uchun zarur bo’lgan malaka va ko’nikmalar majmuasi; 2) har bir ta’lim oluvchi va jamoaning faolligini pedagogik jihatdan ta’minlash uchun zarur bo’lgan malaka va ko’nikmalar.

**Pedagogik tizim** – shaxsni rivojlantirish va yaxlit pedagogik jarayonni birlashtirgan ta’limning o’zaro bog’langan tashkiliy tuzilmasi.

**Ruhiy pedagogik tayyorgarlik** – pedagogikaning metodologik asoslari va kategoriyalarini, shaxsni ijtimoiylashuvi va taraqqiyoti qonuniyatlari, ta’lim va tarbiyaning mohiyati, maqsadi va texnologik g’oyalarini bilish.

**Suhbat** – kuzatuv juda etarli darajada aniq bo’lmagan zarur axborotni olish uchun qo’llanadigan tadqiqot metodi.

**Talabalarni kasbga yunaltirish** – talaba-yoshlarga kelajakda o'z kasblarini aniqlab olish uchun yordam ko'rsatishga qaratilgan ijtimoiy-iqtisodiy, psixologik, pedagogik, tabiiy-biologik va ishlab chiqarish texnik tadbirlarning asoslangan tizimi.

**Ta'lim** – 1) shaxs jismoniy va ma'naviy shakllanishining yagona jarayoni, ijtimoiy etalonlarning ijtimoiy ong sifatida u yoki bu darajada qayd qilingan, tarixan shartlangan ideal timsollarga ongli yo'naltirilgan ijtimoiylashish jarayoni; 2) muayyan bilimlarni egallash g'oyaviy-axloqiy qadr, malaka, ko'nikma, axloq me'yorlariga qaratilgan jamiyat a'zolarining ta'lim va tarbiyasi vazifasini bajaradigan nisbiy mustaqil tizim.

**Tarbiya** – 1)shaxsning ma'naviy va jismoniy holatiga muntazam va maqsadga muvofiq ta'sir etish; 2) pedagogik jarayonda ta'lim maqsadlarini amalga oshirish uchun pedagog va tarbiyalanuvchilarning maxsus tashkil etilgan faoliyati.

**Tafakkur** – inson aqliy faoliyatining oliy shakli, insonlarni o'rab olgan dunyodagi o'zaro bog'langan narsa va hodisalarni bilish jarayoni, muhim hayotiy jarayonlarni his qilish va muammolarni hal qilish, ma'lum bo'lmagan voqea hodisalarni qidirish, kelajakni ko'ra olish. Tafakkur, tushuncha, hukm, xulosa shakllarida namoyon bo'ladi.

**Temperament** – 1) shaxsning psixik faoliyati dinamikasining turli jihatlarini bildiradigan turg'un individual xususiyatlarining qonuniy munosabatlari; 2) shaxsning dinamik xususiyatlari: intensivlik, tezlik, temp, psixik jarayonlar va holatlar ritmi.

**Test** –1) standart shakldagi topshiriqlar bo'lib, aqliy taraqqiyot, qobiliyat, bilim va malakani aniqlash maqsadida o'tkaziladigan sinovdir; 2) aniq sotsiologik tadqiqotlarda foydalaniladigan tarqatma material, savolnoma; 3) shaxs ruhiyati va xulqini aniq miqdoriy va ma'lum sifat baholarini oldindan berilgan ba'zi standart – test me'yorlari bilan qiyosiy o'rganishga mo'ljallangan psixologik tadqiqotlarning standartlashtirilgan metodi.

**Texnologiya** – ishlab chiqarish jarayonida ashyolar, materiallar, yarim tayyor mahsulotlarni tayyorlash, qayta tayyorlash, ashyoning holati, xususiyati, shaklini o'zgartirish usullari to'plami.

**Tizim** – 1) yaxlit ta'limni, uning birligini belgilovchi bir-biri bilan qonuniy bog'liq aksariyat unsurlar (predmetlar, hodisalar, qarashlar, bilimlar va boshqalar); 2) qismlarning ma'lum bir bog'lanishlarda, harakatlarning o'ta izchillikda rejali, to'g'ri joylashish tartibi.

**Faoliyat** – 1) ongli maqsad bilan boshqariladigan kishining ichki (ruhiy), tashqi (jismoniy) faolligi; 2) atrof-muhitning kishilar tomonidan maqsadga muvofiq qayta bunyod etilishi.

**Shaxs** – 1) kishilarning ijtimoiy xulqi, insonlar orasida o'zini tutishini aks ettiradigan ruhiy sifatlari majmuini bildiruvchi tushuncha; 2) turli-tuman sifatlarni tizimidagi kishining ruhiy, ma'naviy mohiyati; 3) ijtimoiy mohiyat kasb etgan va o'z-o'zini anglash qobiliyatiga ega bo'lgan kishi.

**Shaxsiy fazilat** – shaxs tomonidan o'zining axloqiy, ruhiy va ishchanlik qobiliyatining ijtimoiy ahamiyatini, jamiyatdagi o'rnini anglay olish xususiyati.

**E'tiqod** – shaxs amal qiladigan bilim, tamoyil va hodisalarning qalban va asosli ishonch bilan bog'langan, uning atrof-muhitga hamda o'zining hattiharakatlariga bo'lgan sub'ektiv munosabati.

**Estetik tarbiya** – go'zallikni his qilish, atrof-muhitdan go'zallikni payqay olish va tushunishga bo'lgan qobiliyatni tarbiyalash.

**Ehtiyoj** – individning biror narsa-hodisaga muhtojligi va kishining ruhiy quvvati hamda faolligi manbai hisoblanadigan asosiy xususiyati.

**Ehtimollik** – tasodifiylik, pedagogik hayotdagi o'zgarishlarni aniq aytib berish mumkin bo'lmagan, ehtimol kutilgan jarayon.

**O'yin** – faoliyatning bir turi bo'lib, ijtimoiy tajribalarni o'zlashtirish va bunyod etishga, o'z hatti-harakatlarini takomillashtirishga qaratilgan bo'ladi.

**O'z-o'zini baholash** – shaxsning o'z psixologik sifatlari, xulqi, yutuqlari va muvaffaqiyatsizliklari, qadr-qimmatini, kamchiliklarini baholay olishi.



**O'z-o'zini tarbiyalash** – 1) shaxsga xos bo'lgan madaniyatning shakllanishi va rivojlanishiga qaratilgan izchil va ongli faoliyati; 2) shaxsning o'z jismoniy, ruhiy va axloqiy sifatlarini tinmay amalga oshirish.

**O'qitish** – 1) ta'limning o'ziga xos usuli bo'lib, shaxsga nazariy va amaliy bilimlar berish jarayonida uning rivojlanishi ta'minlanadi; 2) talaba va o'qituvchi, talabaning boshqa talabalar bilan aloqasi natijasi o'laroq atrof-muhit, uning qonuniyatlari, taraqqiyot tarixi va ularning o'rganilish usullarini bilishning muntazam boshqarilish jarayoni.

**O'qituvchining innovatsion faoliyati** – ijtimoiy pedagogik fenomen bo'lib, ijobiy imkoniyatni aks ettirish, kundalik faoliyatdan chetga chiqishdir.

**O'qitish vazifasi** – ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlanish vazifalari.

**O'qitish turlari** – sokratcha suhbat metodi, qoloq ta'lim, izohlash-namoyish etish asosida o'qitish, bilimlarni mustaqil egallash, dasturlashtirilgan ta'lim, o'quv jarayonini algoritmlash, differentsiatsiyali hamda individual ta'lim va boshqalar.

**O'qish** – o'quvchining o'z qobiliyati, bilimi, malaka va ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan harakat.

**O'quv-bilish faoliyati** – insoniyat tomonidan to'plangan madaniy boylikni egallash bilan bog'liq faoliyat.

**O'quv faoliyati** – shaxsning yangi bilim, malaka va ko'nikalarni egallash jarayoni.

**Qiziqish** – shaxs harakatiga sabab bo'ladigan faoliyat yo'nalishining ongli shakli.

**Yaxlit pedagogik jarayon** – tarbiya jarayonida va ta'lim jarayonida tarbiya berishning o'zaro singib ketgan, yaxlit holga kelgan jarayoni.

## X U L O S A

Amaliy mashg'ulot asosi talabalarga barcha oliy o'quv yurtlarida ta'lim shakllarini etkazib berishga asoslangan. Talabalar amaliy mashg'ulot ishini tashkil etish, o'qituvchi talabalarga kerak bo'lgan ma'ruzalarning materiallarini beradi va ularni o'zlari amaliy Mashg'ulot materiallari bilan to'ldirilishi kerak. Shuni takidlash kerakki, talabalarning amaliy Mashg'ulot ishi ijobiy natijalar beradi agar, u maqsadli, tizimli va aniq rejalashtirilgan bo'lsa. Bunda talabaning amaliy Mashg'ulot ishining o'ziga hosligi shunda bo'lish kerakki, talaba o'zi mustaqil va yangi bilimlar olish lozim. Bundan shunday hulosaga kelish imiz mumkin:

Talabaning amaliy mashg'uloti - bu turli hil individual yoki guruhli vazifalarni o'qitish usullaridan foydalangan holda bajariladigan amaliy dars (seminar, praktikum) bo'lib, bunda talabalar yangi bilimlarini, yoki oldin olgan bilimlarini umumlashtiradi.

Shunday qilib, ta'lim standartining auditoriyadan tashqari talabalar amaliy Mashg'ulot ishlarni tashkillashtirish sohasidagi talablarini bajarish uchun zarur:

- talabalar amaliy Mashg'ulotning mahoratini shakllantirish;
- o'qituvchi va talabalarning auditoriyadan tashqari ishining talabalar amaliy Mashg'ulotlarni bajarilib borishini nazorat qilish uchun me'yorlarini ishlab chiqish;
- maxsus o'quv-uslubiy adabiyot va ularning elektron versiyalarini chop etish;
- mavjud elektron nashrlardan foydalanish va o'ziniki (yangisi)ni yaratish va xakozalar.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov I.A. Bosh maqsadimiz – keng ko'lamli islohatlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish: 2012-yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2013-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustivor yo'nalishlariga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining majlisidagi ma'ruza. –T.: O'zbekiston, 2013. 64-b.
2. O'zbekiston Respublikasi «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi». -T.: Sharq, 1997.
3. Ta'limda Ta'lim texnologiyalari: muammolar, echimlar: Ilmiy – amaliy konferensiya materiallari. – T.: O'zPFITI, 1999, 4-5 may.
4. Azizxo'jaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. -T.: TDPU, 2003.
5. Педагогическое мастерство Учеб.пособие для студ.ТУИТ по направл. “Проф. образование” (Телекоммуникации) (Информатика и информационные технологии)/ сост. М.С. Абилова, С.Р. Волкова, Г.Н. Кузьмина. Под ред. Н. Х. Гултураев. -Т.: ТУИТ, 2006.
6. Педагогические технологии. Учеб.пособие для студ.пед.спец./ М.В. Буланова -Топоркова, А.В. Духавнева, В.С. Кукушин, Г.В. Сучков. Под.общ.ред. В.С.кукушина.- М.: ИКЦ “ Март”, 2004.
7. Педагогические технолгии. Учеб.пособие/ Т.П. Сальникова .- М.: ТЦ Сфера, 2008.
8. Pedagogik mahorat. “ Kasbiy pedagogika” yo'nalishi uchun metodik qo'llanma / TATU. Kasbiy pedagogika kafedrasi. – T.: TATU, 2004.
9. Фарберман, Б. Передовые педагогические технологии. Монография Б. Фабермана. 3 е изд. Т.: Фан АН РУз, 2000.
10. Назарова Т.С. Педагогические технологии: Новый этап эволюции. – Т.: Педагогика., 1997. – № 3.
11. Кларин М.В. Педагогические технологии в учебном процессе. – М.: Знание, 1989.

12. Гузеев В. От методик – к образовательной технологии // Народное образование, 1998. - № 5.

### **Axborot-resurs manbalar**

1. <http://uz.elkutubhona.narod.uz><http://uz.ref.uz>
2. <http://pedagog.uz>.
3. [http:// eduworld.ru](http://eduworld.ru)
4. [www.infocom.uz](http://www.infocom.uz).
5. [www.dasturchi.uz](http://www.dasturchi.uz).
6. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz).
7. [www.etuit.uz](http://www.etuit.uz).
8. [www.edu.uz](http://www.edu.uz).
9. [www.moodle.samtuit.uz](http://www.moodle.samtuit.uz).